

“MA’QULLANGAN”
“Imkon-Sug‘urta”
aksiyadorlik jamiyati
Kuzatuv kengashining
2025 yil “30” sentabrdagi
17 -sonli qarori bilan

“TASDIQLANGAN”
“Imkon-Sug‘urta”
aksiyadorlik jamiyati
yagona aksiyadorining
2025 yil “22” oktabrdagi
243 -sonli qaroriga 2 -ilova
(“Ipoteka-bank” ATIB
Boshqaruvi yig‘ilishining
2025 yil “22” oktabrdagi
243 -sonli bayoni bilan)

**“IMKON-SUG‘URTA”
AKSIYADORLIK
JAMIYATINING
U S T A V I
(yangi tahrirda)**

Toshkent shahri, 2025 yil

“APPROVED”
by the Decision
of the Supervisory Board
of the Joint-Stock Company
“Imkon-Sug‘urta”
dated September 30, 2025 # 17

“ADOPTED”
Attachment # 2
to the Decision of the Sole Shareholder
of the Joint-Stock Company
“Imkon-Sug‘urta” dated
October 22, 2025 # 243
(with the Minutes of the meeting of the
Management Board of JSCMB “Ipoteka-bank”
dated October 22, 2025, # 243)

**C H A R T E R
OF THE JOINT-STOCK COMPANY
“IMKON-SUG‘URTA”
(in a new edition)**

Tashkent city, 2025

PA

<p style="text-align: center;">I. UMUMIY QOIDALAR</p> <p>1.1. Mazkur Ustav “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.</p> <p>1.2. “Imkon-Sug‘urta” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda “Jamiyat” deb yuritiladi) avval Toshkent shahar Mirzo-Ulug‘bek tumani davlat xizmatlari markazi tomonidan 2019 yil 9 aprelda 709650-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Imkon-Sug‘urta” mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi sug‘urta kompaniyasini o‘zgartirish (qayta tuzish) yo‘li bilan qayta tashkil etilgan.</p> <p>1.3. Jamiyat “Imkon-Sug‘urta” mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi sug‘urta kompaniyasining barcha huquq va majburiyatlari, jumladan kreditorlari va qarzdorlariga nisbatan barcha majburiyatlari, shu bilan birga taraflar bahslashayotgan majburiyatlarni bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.</p> <p>1.4. Mazkur Ustav Jamiyatning ta‘sis hujjati hisoblanadi.</p>	<p style="text-align: center;">I. GENERAL PROVISIONS</p> <p>1.1. This Charter has been developed in accordance with the laws of the Republic of Uzbekistan “On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders’ Rights”, “On Insurance Activities” and other regulatory legal documents.</p> <p>1.2. Joint-Stock Company “Imkon-Sug‘urta” (hereinafter referred to as the “Company”) was re-established through the transformation (reorganization) of the insurance company “Imkon-Sug‘urta” limited liability company, which was previously registered by the State Services Center of Mirzo-Ulug‘bek District, Tashkent city, under state registration number 709650 on April 9, 2019.</p> <p>1.3. The Company is the legal successor of all rights and obligations of the “Imkon-Sug‘urta” limited liability insurance company, including all obligations towards creditors and debtors, as well as legal successor regarding the obligations disputed by the parties.</p> <p>1.4. This Charter serves as the founding document of the Company.</p>
<p style="text-align: center;">II. JAMIYATNING FIRMA NOMI, JOYLASHGAN MANZILI (POCHTA MANZILI), ELEKTRON POCHTA MANZILI VA RASMIY KORPORATIV VEB-SAYTI</p> <p>2.1. Jamiyatning firma nomi: <u>davlat (o‘zbek) tilida lotin alifbosida:</u> to‘liq nomi – “Imkon-Sug‘urta” aksiyadorlik jamiyati; qisqartirilgan nomi – “Imkon-Sug‘urta” AJ; <u>davlat (o‘zbek) tilida kirill alifbosida:</u> to‘liq nomi – “Imkon-Sug‘urta” акциядорлик жамияти; qisqartirilgan nomi – “Imkon-Sug‘urta” АЖ; <u>rus tilida:</u> to‘liq nomi – Акционерное общество «Imkon-Sug‘urta»;</p>	<p style="text-align: center;">II. COMPANY’S NAME, LOCATION (MAIL ADDRESS), EMAIL ADDRESS, AND OFFICIAL CORPORATE WEBSITE</p> <p>2.1. The Company’s name: <u>In the state (Uzbek) language, Latin alphabet:</u> Full name – “Imkon-Sug‘urta” aksiyadorlik jamiyati; Abbreviated name – “Imkon-Sug‘urta” AJ; <u>In the state (Uzbek) language, Cyrillic alphabet:</u> Full name – “Imkon-Sug‘urta” акциядорлик жамияти; Abbreviated name – “Imkon-Sug‘urta” АЖ; <u>In Russian:</u> Full name – Акционерное общество «Imkon-Sug‘urta»;</p>

<p>qisqartirilgan nomi – AO «Imkon-Sug'urta»;</p> <p><u>ingliz tilida:</u></p> <p>to'liq nomi – Joint-Stock Company “Imkon-Sug'urta”;</p> <p>qisqartirilgan nomi – JSC “Imkon-Sug'urta”.</p> <p>2.2. Jamiyatning joylashgan manzili (pochta manzili): O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, 100000, Mustaqillik shox ko'chasi, 17-uy.</p> <p>2.3. Jamiyatning elektron pochta manzili: info@imkonsugurta.uz</p> <p>2.4. Jamiyatning rasmiy korporativ veb-sayti: www.imkonsugurta.uz</p>	<p>Abbreviated name – AO «Imkon-Sug'urta»;</p> <p><u>In English:</u></p> <p>Full name – Joint-Stock Company “Imkon-Sug'urta”;</p> <p>Abbreviated name – JSC “Imkon-Sug'urta”.</p> <p>2.2. The Company's location (mail address): Republic of Uzbekistan, Tashkent city, Mirzo Ulug'bek district, 100000, Mustaqillik Street, 17.</p> <p>2.3. The Company's email address: info@imkonsugurta.uz</p> <p>2.4. The Company's official corporate website: www.imkonsugurta.uz</p>
<p style="text-align: center;">III. JAMIYATNING YURIDIK MAQOMI</p> <p>3.1. Jamiyat o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi, “Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga hamda mazkur Ustavga muvofiq amalga oshiradi.</p> <p>Jamiyat yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o'zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) kiritilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.</p> <p>3.2. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi.</p> <p>3.3. Jamiyat faoliyat ko'rsatish muddati cheklanmagan holda tashkil etilgan.</p> <p>3.4. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisobvaraqlari ochishga haqlidir.</p> <p>3.5. Jamiyat o'zining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan to'liq va qisqartirilgan firma nomiga ega.</p>	<p style="text-align: center;">III. LEGAL STATUS OF THE COMPANY</p> <p>3.1. The Company carries out its activities in accordance with the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Civil Code of the Republic of Uzbekistan, the Laws of the Republic of Uzbekistan “On Insurance Activities”, “On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights”, “On the Securities Market”, and other regulatory legal acts of the Republic of Uzbekistan, and this Charter.</p> <p>The Company is a legal entity, owning independent property recorded on its balance sheet, including property contributed to its charter fund (authorized capital). It may acquire both property and non-property rights in its own name, assume obligations, and be a party in court as a plaintiff or defendant.</p> <p>3.2. The Company acquires the status of a legal entity from the moment of its state registration.</p> <p>3.3. The Company is established for an unlimited period.</p> <p>3.4. The Company has the right to open bank accounts within the Republic of Uzbekistan and abroad.</p> <p>3.5. The Company has its organizational-legal form represented by the full and abbreviated versions of its name.</p>

<p>3.6. Jamiyat o'zining firma nomi davlat tilida to'liq yozilgan yumaloq muhrga ega. Ommaviy axborot vositalarida bir vaqtning o'zida Jamiyat nomini boshqa tilda ko'rsatish mumkin.</p> <p>3.7. Jamiyat o'zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o'z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilari, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'lishga haqli.</p> <p>3.8. Jamiyat Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida o'z filiallari va sotuv markazlariga ega. Ushbu filiallar va sotuv markazlari Jamiyat tomonidan tasdiqlangan filial va sotuv markazlari to'g'risidagi nizomga asosan faoliyat ko'rsatadi. Filial va sotuv markazlari rahbarlari Jamiyat tomonidan tayinlanadi va ishonchnoma asosida ish yuritadi.</p>	<p>3.6. The Company has a round stamp with its full name written in the state language. The name of the Company can be shown in another language in the mass media.</p> <p>3.7. The Company is entitled to have stamps, blanks, its emblem, a registered trademark, and other means reflecting the specific characteristics of its participants, goods, works, and services.</p> <p>3.8. The Company has branches and sales centers in the Republic of Karakalpakstan, regions, and Tashkent city. These branches and sales centers operate based on the regulations approved by the Company. The heads of the branches and sales centers are appointed by the Company and operate under power of attorney.</p>
<p style="text-align: center;">IV. JAMIYAT AKSIYADORLARINING TARKIBI</p> <p>4.1. Jamiyatning yagona aksiyadori "Ipoteka-bank" aksiyadorlik tijorat ipoteka banki, yuridik manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek tumani, 100000, Shahrizabz ko'chasi, 30-uy.</p>	<p style="text-align: center;">IV. COMPOSITION OF THE COMPANY'S SHAREHOLDERS</p> <p>4.1. Joint-Stock Commercial Mortgage Bank "Ipoteka-Bank" is the Sole shareholder of the Company with its legal address: Republic of Uzbekistan, Tashkent city, Mirzo-Ulugbek district, 100000, Shakhrisabz street, 30.</p>
<p style="text-align: center;">V. JAMIYATNING FILIALLARI, SOTUV MARKAZLARI VA VAKOLATXONALARI</p> <p>5.1. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda filiallar va sotuv markazlari tashkil etishga hamda vakolatxonalar ochishga haqli.</p> <p>5.2. Filial Jamiyatning Jamiyat joylashgan manzilidan tashqarida joylashgan hamda uning barcha vazifalarini yoki ularning bir qismini, shu jumladan sotuv markazining vazifalarini amalga oshiradigan alohida bo'linmasidir.</p> <p>5.3. Vakolatxona Jamiyatning Jamiyat joylashgan manzilidan tashqarida joylashgan, uning manfaatlarini ifodalaydigan va bu manfaatlarni himoya qilishni amalga oshiradigan alohida bo'linmasidir.</p> <p>5.4. Jamiyatning filiali, sotuv markazi va vakolatxonasi yuridik shaxs maqomiga ega</p>	<p style="text-align: center;">V. COMPANY BRANCHES, SALES CENTERS, AND REPRESENTATIVE OFFICES</p> <p>5.1. The Company has the right to establish branches and sales centers, as well as open representative offices in accordance with the procedure established by the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p> <p>5.2. A branch is a separate unit of the Company located outside the Company's registered address and performs all or part of the Company's functions, including the functions of sales centers.</p> <p>5.3. A representative office is a separate unit of the Company located outside the Company's registered address, which represents the Company's interests and carries out activities to protect those interests.</p> <p>5.4. The Company's branch, sales center, and representative office are not legal entities. They</p>

emas. Ular Jamiyatning Bosh direktori tomonidan tasdiqlangan nizomlar asosida ish yuritadi. Jamiyatning filial, sotuv markazlari va vakolatxonasiga berib qo'yilgan mol-mulklar Jamiyatning balansida hisobga olinadi.

5.5. Jamiyat filial, sotuv markazi va vakolatxona faoliyati uchun javobgar bo'ladi.

5.6. Filial, sotuv markazi yoki vakolatxonaning rahbari Jamiyat Bosh direktori tomonidan tayinlanadi va u tomonidan berilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi.

5.7. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga ega bo'lishi mumkin.

5.8. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga muvofiq boshqa yuridik shaxslarning ta'sischi bo'lishga yoki ularning ustav fondida (ustav kapitalida) boshqacha tarzda ishtirok etishga haqli.

operate based on regulations approved by the Company's General Director. The assets assigned to the Company's branches, sales centers, and representative offices are accounted for on the Company's balance sheet.

5.5. The Company is responsible for the activities of its branches, sales centers, and representative offices.

5.6. The head of a branch, sales center, or representative office is appointed by the Company's General Director and operates based on the power of attorney issued by him.

5.7. The Company may own subsidiaries and dependent commercial companies in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan.

5.8. The Company has the right to be the founder of other legal entities or participate in their authorized capital (charter capital) in accordance with the requirements of the legislation of the Republic of Uzbekistan.

VI. JAMIYAT FAOLIYATINING SOHASI (ASOSIY YO'NALISHLARI) VA MAQSADI

6.1. Jamiyat tijorat tashkiloti bo'lib, asosiy yo'nalishi sug'urta bozori professional ishtirokchisi sifatida umumiy sug'urta sohasining ixtiyoriy va majburiy shakllarini yuridik va jismoniy shaxslarga taqdim etish hisoblanadi.

Jamiyat faoliyatining maqsadi – O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy ko'rsatkichlari o'sishini ta'minlashda ishtirok etish hamda sifatli sug'urta xizmatlarini ko'rsatish orqali daromad topishdir.

6.2. Jamiyat umumiy sug'urta qilish tarmog'ida O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, chet el fuqarolariga, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, chet el yuridik va jismoniy shaxslariga, shuningdek qayta sug'urta qildiruvchilarga (rezident va norezidentlarga) sug'urta va qayta sug'urta xizmatlarini ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan. Qolaversa, Jamiyat o'z faoliyatida iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, ilm-fan yutuqlarini joriy qilish, infratuzilmani rivojlantirish, sug'urta bozorini

VI. SCOPE OF THE COMPANY'S ACTIVITIES (MAIN DIRECTIONS) AND GOALS

6.1. The Company is a commercial organization, and its primary focus is to act as a professional participant in the insurance market, offering both voluntary and compulsory forms of general insurance to legal and natural persons.

The objective of the Company's activities is to contribute to the growth of economic indicators of the Republic of Uzbekistan and generate profits by providing quality insurance services.

6.2. The Company was established to provide insurance and reinsurance services to citizens of the Republic of Uzbekistan, foreign nationals, stateless persons, foreign legal and natural persons, as well as re-insurers (both residents and non-residents) in the general insurance sector. Furthermore, the Company aims to strengthen economic cooperation, implement scientific achievements, develop infrastructure, meet the demand for high-quality insurance services in the insurance market, and fulfill the

<p>yuqori sifatli sug'urta xizmatlariga bo'lgan mavjud ehtiyojini yanada to'liqroq qondirish, mehnat jamoasi a'zolari va jamiyatning ijtimoiy hamda iqtisodiy manfaatlarini qondirishni ham amalga oshiradi.</p> <p>6.3. Jamiyat yuqorida ko'rsatilgan faoliyat turlaridan tashqari, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlarini ham amalga oshirish huquqiga ega.</p> <p>6.4. Jamiyat sug'urtalovchi sifatida sug'urta sohasida vakolatli davlat organi tomonidan berilgan litsenziya asosida sug'urta faoliyatini amalga oshiradi.</p>	<p>social and economic interests of its employees and the Company as a whole.</p> <p>6.3. In addition to the activities mentioned above, the Company has the right to engage in other activities that are not prohibited by the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p> <p>6.4. As an insurer, the Company operates in the insurance sector based on a license granted by the competent state authority for conducting insurance activities.</p>
<p style="text-align: center;">VII. JAMIYATNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI</p> <p>7.1. Jamiyat quyidagi huquqlarga ega:</p> <p>Jamiyat sug'urta xizmatlarini sotishi, sug'urta bilan bog'liq xizmatlarni taqdim etishi va olishi (shu jumladan, sug'urta xatarini va zararni baholash, sug'urta da'volarini ko'rib chiqish va boshqalar) maqsadida O'zbekiston Respublikasi va chet el yuridik shaxslar, yakka tadbirkorlar va jismoniy shaxslar bilan mulkiy, shaxsiy sug'urta, javobgarlikni sug'urtalash bo'yicha sug'urtalash, qayta sug'urtalash shartnomalari, agentlik, hamkorlik va boshqa shartnomalar (bitimlar) tuzish;</p> <p>O'zbekiston hamda chet elda Jamiyatning maqsadlari va asosiy vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan va/yoki ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan har xil bitimlarni va boshqa huquqiy harakatlarni amalga oshirish;</p> <p>O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda boshqa yuridik shaxslarning ishtirokchisi bo'lish yoki ularning ustav fondida (ustav kapitalida) boshqa tarzda ishtirok etish, O'zbekiston Respublikasi hududida kabi uning tashqarisida ham filiallar, sotuv markazlari va vakolatxonalar ochish;</p> <p>banklarda belgilangan tartibda ixtiyoriy hisobvarag'i va valyuta hisobvarag'i ochish, sudda o'z manfaatlarini himoya qilish, bank kreditini olish, O'zbekiston Respublikasining</p>	<p style="text-align: center;">VII. RIGHTS AND OBLIGATIONS OF THE COMPANY</p> <p>7.1. The Company has the following rights:</p> <p>Concluding contracts with legal entities, individual entrepreneurs, and individuals from the Republic of Uzbekistan and foreign countries for the sale of insurance services, providing and receiving services related to insurance (including the assessment of insurance risks and damages, reviewing insurance claims, and others), concluding contracts for property insurance, personal insurance, liability insurance, reinsurance, agency, cooperation, and other agreements (contracts);</p> <p>Performing various transactions and legal actions related to the implementation of the Company's goals and main tasks in Uzbekistan and abroad;</p> <p>Participating in legal entities or making other contributions to their authorized capital, opening branches, sales centers, and representative offices both in Uzbekistan and abroad in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan;</p> <p>Opening current and foreign currency accounts in banks in the prescribed manner, protecting its interests in court, obtaining bank loans, in accordance with the legislation of the</p>

qonunchiligiga muvofiq barcha shakldagi to'lovlarni o'tkazish va akseptlash, pul vositalarini konvertatsiya qilishning tartibiga muvofiq, vakolatli bank orqali o'z vositalarini konvertatsiya qilish;

sug'urta xatarini baholash, milliy va xorijiy valyutada sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish, shu jumladan sug'urta mukofotlarini (sug'urta badallarini) olish, sug'urta mahsulotlari va dasturlarini ishlab chiqish, ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha sug'urta qoidalari va shartlarini, sug'urta tariflarini, sug'urta mukofotlarini tasdiqlash, sug'urta vositachilari bilan o'zaro kelishgan holda agentlik to'lovlari miqdorini belgilash, sug'urta zaxiralarini shakllantirish, aktivlarni investitsiya qilish, zararlar miqdorini aniqlash, sug'urta to'lovlarni amalga oshirish, sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq boshqa harakatlarni amalga oshirish;

sug'urta hodisalari yuz berishining oldini olish va ogohlantirish chora-tadbirlarini O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartib va shartlarda moliyalashtirish;

sug'urta hodisalari yuz berishining oldini olish va sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta qaltisliklari va zarar miqdorini kamaytirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

sug'urta xatarini qabul qilish, xavf darajasi yoki sug'urta dasturining o'zgarishi munosabati bilan shartnomani tuzishda va tuzishdan avval ekspertizalar o'tkazish, sug'urta ob'ektlarining qiymatini aniqlash, sug'urta (qayta sug'urta) shartnomalarida nazarda tutilgan sug'urta xodisalari (sug'urta belgilariga ega bo'lgan holatlar, hodisalar) bo'yicha mustaqil ravishda va/yoki uchinchi shaxslar ishtirokida surishtiruvlar o'tkazish;

Jamiyat vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi va chet el yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini himoya qilish, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan chegara doirasida kreditlar va ssudalarni jalb qilish, kafolatlar va kafilliklar berish, depozitlar berish, investitsiyalarni amalga oshirish hamda

Republic of Uzbekistan making all types of payments, and converting funds through authorized banks;

Carrying out operations related to the insurance of risks, including the receipt of insurance premiums, the development of insurance products and programs, approval of terms and insurance tariffs, determining the amount of insurance premiums, forming insurance reserves, investing assets, determining the amount of losses, making insurance payments, and performing other actions related to fulfilling obligations under insurance contracts;

Financing measures to prevent and warn against insurance events in accordance with the procedure and terms prescribed by the legislation of the Republic of Uzbekistan;

Implementing of measures aimed at preventing the occurrence of insured events and reducing the amount of insured losses in the event of an insured event;

Conducting expert evaluations before and during contract formation in relation to accepting insurance risks, changes in risk levels, or insurance program modifications, to determine the value of insured objects, and to independently conduct investigations (or involve third parties) regarding insurance events (cases with insurance claims or situations);

Protecting the interests of legal entities and individuals from the Republic of Uzbekistan and foreign countries within its competence, attracting loans, providing guarantees and deposits, making investments, and placing insurance reserve funds into investment instruments in accordance with the legislation of Uzbekistan and internal regulatory acts;

normativ-huquqiy va ichki me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan tartibda sug'urta zaxiralari mablag'larini investitsiya instrumentlariga joylashtirish;

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy aloqalarda ishtirok etish;

sug'urta agentlari, sug'urta va qayta sug'urtalash brokerlari, shuningdek sug'urta bozorining boshqa ishtirokchilari bilan tegishli ravishda shartnomalar tuzish;

sug'urta sohasida vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda investitsiya faoliyatini olib borish, qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi va investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi sifatida professional faoliyatni amalga oshirish;

sug'urta (qayta sug'urta qilish) sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish;

chet el sug'urtalovchilariga syurveyer va adjaster xizmatlarini ko'rsatish;

sug'urtalovchi tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta turlariga doir qoidalarni (shartlarni) O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq ishlab chiqish va tasdiqlash;

Jamiyat tomonidan shaxsiy zarurat uchun ilgari olingan yoki sug'urta shartnomalarini tuzish natijasida o'z tasarrufiga olgan mulkni sotish yoki ijaraga berish;

Jamiyatga yuklatilgan vazifalarni bajarishda va xo'jalik faoliyatini yuritishda zarur bo'ladigan tovar-moddiy boyliklar, ishlab chiqarish va texnik maqsadlaridagi jihozlar, transport vositalari, ehtiyot qismlar va boshqa turdagi jihozlarni sotib olish;

sug'urta mavzularida seminarlar, konferensiyalar, boshqa tadbirlar, shu jumladan o'quv tadbirlarini tashkil qilish va qatnashish;

milliy, xorijiy va xalqaro sug'urta ittifoqlariga, birlashmalariga, assotsiatsiya va kasaba uyushmalariga a'zo bo'lish, O'zbekiston Respublikasida va undan tashqarida xalqaro konferensiyalar, seminarlar, treninglar, investitsiya forumlarida ishtirok etish;

Participating in foreign economic activities in the manner prescribed by the legislation of the Republic of Uzbekistan;

Concluding contracts with agents, brokers, and other participants of the insurance market;

Carrying out professional activities as an investment intermediary and asset manager in the securities market, under the terms prescribed by the relevant state authority in the insurance sector;

Engaging in activities related to the professional development of specialists in insurance (reinsurance);

Providing surveyor and adjuster services to foreign insurers;

Developing and approving rules (conditions) related to insurance types carried out by insurers in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan;

Selling or leasing property previously acquired for personal use or as a result of entering into insurance contracts;

Purchasing goods, materials, equipment for production and technical purposes, vehicles, spare parts, and other types of equipment necessary for fulfilling the company's obligations and conducting business activities;

Organizing and participating in seminars, conferences, and other events, including training sessions related to insurance;

Joining national, foreign, and international insurance associations, federations, unions, associations, and trade unions, and participating in international conferences, seminars, training sessions, and investment forums both in Uzbekistan and abroad;

<p>tender, tanlov, auksion, savdo va konkurslarda ishtirok etish;</p> <p>homiylilik va xayriya tadbirlarini amalga oshirish;</p> <p>xo'jalik faoliyatini mustaqil rejalashtirish;</p> <p>o'z majburiyatlarini belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida qayta sug'urta qildirish;</p> <p>sug'urta hodisasi ro'y berishining sabablari va holatlarini, shuningdek sug'urta tovonini (sug'urta puli) miqdorini belgilash uchun zarur bo'lgan tegishli axborot va hujjatlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlardan, sudlar, tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlari hamda boshqa tashkilotlardan so'rab olish;</p> <p>O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va (yoki) sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasida belgilangan hollarda hamda tartibda sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) to'lashni rad etish, sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasini muddatidan ilgari bekor qilish;</p> <p>O'zbekiston Respublikasi va chet el reyting tashkilotlaridan reyting ko'rsatkichlarini olish;</p> <p>O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarni amalga oshirish.</p> <p>7.2. Jamiyat quyidagi majburiyatlarga ega:</p> <p>sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etish;</p> <p>sug'urta faoliyatini amalga oshirish chog'ida olingan axborotning maxfiyligini O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga muvofiq ta'minlash;</p> <p>o'zi vakolat bergan sug'urta agentlarining reyestrini yuritish;</p> <p>O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan axborotni sug'urta sohasida vakolatli davlat organining talabiga binoan taqdim etish;</p> <p>sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida yoki sug'urta (qayta sug'urta) shartnomasida nazarda tutilgan muddatlarda barcha zarur</p>	<p>Participating in tenders, competitions, auctions, and other commercial activities;</p> <p>Engaging in sponsorship and charity events;</p> <p>Independently planning its economic activities;</p> <p>Reinsuring outside the Republic of Uzbekistan in accordance with the prescribed procedure;</p> <p>Requesting relevant information and documents from law enforcement bodies, courts, medical, seismological, veterinary, meteorological organizations, and other organizations to determine the cause of the insurance event and the amount of compensation (insurance payout);</p> <p>Refusing to pay the insurance indemnity (insurance payment) in cases and according to the procedures established by the legislation of the Republic of Uzbekistan and/or the insurance (reinsurance) contract, as well as early terminating of the insurance (reinsurance) contract.</p> <p>Obtaining rating indicators from national and foreign rating organizations;</p> <p>Exercising other rights in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan and concluded contracts.</p> <p>7.2. The Company has the following obligations:</p> <p>Complying with the requirements of legislation on insurance activities;</p> <p>Ensuring the confidentiality of information obtained during insurance activities in accordance with the law;</p> <p>Maintaining a register of authorized insurance agents;</p> <p>Providing the information as required by the legislation of the Republic of Uzbekistan based on the request of the relevant state authority in the insurance sector;</p> <p>Making all necessary calculations and insurance payments (insurance claims) in the event of an insurance occurrence, within the timeframes provided by the legislation of the</p>
---	--

<p>hisob-kitoblarni va sug'urta to'lovini (sug'urta to'lovi) to'lovlarni amalga oshirish;</p> <p>firma nomi, tashkiliy-huquqiy shakli yoki joylashgan manzili (pochta manzili) o'zgargan taqdirda, bu haqda sug'urta sohasida vakolatli davlat organini va sug'urta qildiruvchilarni O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda xabardor qilish;</p> <p>sug'urta zaxiralarini O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda va shartlarda shakllantirish hamda joylashtirish;</p> <p>har yili majburiy tashqi auditorlik tekshiruvidan o'tish;</p> <p>sug'urta sohasida vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda bir yilda kamida bir marta aktuar tashkilotni aktuar xizmatlar ko'rsatish uchun jalb etish;</p> <p>sug'urta sohasida vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan shaklda, tartibda va muddatlarda yillik moliyaviy hisobotni e'lon qilish;</p> <p>buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy, statistika, soliq hisobotlarini va boshqa hisobotlarni tuzish;</p> <p>O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish.</p>	<p>Republic of Uzbekistan or the insurance (reinsurance) contract;</p> <p>In case of a change in the company name, organizational-legal form, or location (postal address), notifying the relevant state authority in the insurance sector and the policyholders in accordance with the procedures established by the legislation of the Republic of Uzbekistan;</p> <p>Forming and placing insurance reserves in accordance with the requirements of the legislation of the Republic of Uzbekistan;</p> <p>Conducting an annual mandatory external audit;</p> <p>Engaging actuarial organizations for actuarial services at least once a year;</p> <p>Publishing the annual financial report in the form, manner, and within the timeframes established by the relevant state authority in the insurance sector;</p> <p>Maintaining accounting records and preparing financial, statistical, tax reports, and other documents;</p> <p>Fulfilling other obligations as required by the legislation of the Republic of Uzbekistan and concluded contracts.</p>
<p style="text-align: center;">VIII. JAMIYATNING JAVOBGARLIGI</p> <p>8.1. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.</p> <p>8.2. Aksiyadorlar Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarning o'rnini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi.</p> <p>8.3. Aksiyalarning haqini to'liq to'lamagan aksiyadorlar Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladi.</p> <p>8.4. Jamiyat o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.</p>	<p style="text-align: center;">VIII. LIABILITY OF THE COMPANY</p> <p>8.1. The company shall be liable with all its property for its obligations.</p> <p>8.2. Shareholders shall not be liable for the obligations of the company and bear the risk of covering losses related to its activities only to the extent of the value of the shares they own.</p> <p>8.3. Shareholders who have not fully paid for their shares shall be jointly liable for the obligations of the company, to the extent of the unpaid part of the value of their shares.</p> <p>8.4. The company shall not be liable for the obligations of its shareholders.</p>

<p>8.5. Davlat va uning organlari Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, xuddi shuningdek Jamiyat ham davlat va uning organlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.</p>	<p>8.5. The state and its authorities shall not be liable for the obligations of the company, and similarly, the company shall not be liable for the obligations of the state and its authorities.</p>
<p>IX. JAMIYAT USTAV FONDINING (USTAV KAPITALINING) MIQDORI</p> <p>9.1. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlar olgan Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi.</p> <p>9.2. Jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan va boshqa jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.</p> <p>9.3. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) miqdori O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan eng kam miqdordan kam bo'lmasligi lozim.</p> <p>9.4. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) miqdori 80 000 000 000,00 (sakson milliard) so'mni tashkil qiladi va nominal qiymati 1 (bir) so'm bo'lgan 80 000 000 000 (sakson milliard) dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz shakldagi oddiy aksiyalardan iborat.</p>	<p>IX. AMOUNT OF THE CHARTER FUND (CHARTER CAPITAL) OF THE COMPANY</p> <p>9.1. The charter fund (charter capital) of the Company is formed from the nominal value of the shares of the Company held by shareholders and is expressed in the national currency of the Republic of Uzbekistan.</p> <p>9.2. The use of funds obtained through loans, pledges, and other raised funds is not allowed for the formation of the Company's charter fund (charter capital).</p> <p>9.3. The amount of the Company's charter fund (charter capital) must not be less than the minimum amount established by the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p> <p>9.4. The amount of the Company's charter fund (charter capital) is UZS 80,000,000,000.00 (eighty billion) and consists of 80,000,000,000 (eighty billion) ordinary shares with a nominal value of UZS 1 (one) each, in the form of registered shares without certificates.</p>
<p>X. JAMIYATNING USTAV FONDINI (USTAV KAPITALINI) KO'PAYTIRISH</p> <p>10.1. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.</p> <p>10.2. Qo'shimcha aksiyalar mazkur Ustavda belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasidagina Jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin.</p> <p>10.3. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish va Jamiyat Ustaviga ustav fondni (ustav kapitalni) ko'paytirish hamda Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qarorlar Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.</p>	<p>X. INCREASE OF THE COMPANY'S CHARTER FUND (CHARTER CAPITAL)</p> <p>10.1. The company's charter fund (charter capital) can be increased through the placement of additional shares.</p> <p>10.2. Additional shares can only be placed by the Company within the scope of the number of authorized shares specified in this Charter.</p> <p>10.3. The decision to increase the charter capital of the Company through the placement of additional shares, as well as any amendments and additions to the Charter of the Company related to increasing the charter capital and reducing the number of authorized shares, shall be made unanimously by the Supervisory Board.</p>

<p>10.4. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari va shartlari belgilangan bo'lishi kerak.</p> <p>10.5. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunda Jamiyat Ustavida ko'rsatilgan, e'lon qilingan muayyan turdagi aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning soniga qisqartirilishi kerak.</p> <p>10.6. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish jalb qilingan investitsiyalar, Jamiyatning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.</p> <p>10.7. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) uning o'z kapitali hisobidan ko'paytirishda qo'shimcha aksiyalar barcha aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagi aksiyalar tegishli bo'lsa, ayni o'sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) ko'paytirilishi natijasida ko'paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta'minlanmaydigan bo'lsa, Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirishga yo'l qo'yilmaydi.</p>	<p>10.4. The decision to increase the charter capital of the Company by placing additional shares must specify the number of additional ordinary shares to be issued, as well as the deadlines and conditions for their placement.</p> <p>10.5. The increase of the charter capital of the Company through the placement of additional shares shall be registered in the amount of the nominal value of the issued additional shares. The number of additional shares issued in this type must reduce the number of shares of the specific type of authorized shares indicated in the Charter of the Company.</p> <p>10.6. The increase of the charter capital of the Company may be carried out with investments raised, the Company's own capital, and accrued dividends in accordance with the procedure established by the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p> <p>10.7. When increasing the charter capital of the Company from its own capital, the additional shares will be distributed among all shareholders. In this case, the shares corresponding to the type of shares held by each shareholder will be distributed in proportion to the number of shares they hold. If the amount of the increase in the charter capital does not correspond to the nominal value of one share, the increase in the charter capital of the Company will not be allowed.</p>
<p>XI. JAMIYATNING USTAV FONDINI (USTAV KAPITALINI) KAMAYTIRISH</p> <p>11.1. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.</p> <p>11.2. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) aksiyalarning bir qismini olish va</p>	<p>XI. REDUCTION OF THE COMPANY'S CHARTER FUND (CHARTER CAPITAL)</p> <p>11.1. The charter fund (charter capital) of the Company may be reduced through the reduction of the nominal value of shares or the reduction of the total number of shares, including the acquisition of shares by the Company, with the subsequent cancellation of a portion of the shares.</p> <p>11.2. The reduction of the charter fund (charter capital) of the Company may be carried</p>

bekor qilish yo'li bilan kamaytirishga yo'l qo'yiladi.

11.3. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risidagi va Jamiyat Ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

11.4. Jamiyat o'zi joylashtirgan aksiyalarni aksiyadorlar umumiy yig'ilishining joylashtirilgan aksiyalarning bir qismini olish va ushbu aksiyalarning umumiy sonini kamaytirish yo'li bilan Jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risidagi qaroriga ko'ra, shuningdek ularni keyinchalik belgilangan tartibda qayta sotish maqsadida Jamiyat Kuzatuv kengashining (bundan keyin matnda "Kuzatuv kengashi" deb yuritiladi) qaroriga ko'ra olishga haqli.

11.5. Jamiyat o'z aksiyalarini olish to'g'risidagi qarorida olinadigan aksiyalarning turlari, Jamiyat oladigan har bir turdagi aksiyalarning soni, aksiyalarni olish narxi, aksiyalar haqini to'lash shakli va muddati, shuningdek aksiyalar qancha muddatda olinishi belgilanadi.

11.6. Jamiyat o'z aksiyalarini sotib olish vaqtida ularga pul bilan haq to'laydi.

11.7. Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalarini olish narxi ularning bozor qiymatiga muvofiq belgilanadi.

11.8. Jamiyat tasarrufiga o'tgan o'z aksiyalari ovoz berish huquqini bermaydi, ovozlarni sanab chiqishda hisobga olinmaydi, ular bo'yicha dividendlar hisoblab chiqarilmaydi.

11.9. Keyinchalik qayta sotish maqsadida Jamiyat tasarrufiga o'tgan aksiyalar ular Jamiyat tasarrufiga o'tgan paytdan e'tiboran bir yildan kechiktirmay realizatsiya qilinishi kerak, aks holda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilishi lozim. Ko'rsatilgan muddatda realizatsiya qilinmagan aksiyalar bekor qilinishi kerak.

11.10. Jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay o'z kreditorlarini bu haqda yozma

out by acquiring and canceling a portion of the shares.

11.3. Decisions on the reduction of the charter fund (charter capital) of the Company and on making relevant amendments to the Company's Charter are adopted by the general meeting of shareholders.

11.4. The Company has the right to reduce its charter fund (charter capital) by purchasing some of the shares it has issued, in accordance with the decision of the Company's general meeting of shareholders, as well as with the decision of the Company's Supervisory Board (hereinafter referred to as "Supervisory Board") for the purpose of later reselling them in the established manner.

11.5. The decision of the Company to repurchase its shares shall specify the types of shares to be repurchased, the number of shares of each type to be acquired by the Company, the price for acquiring the shares, the form and terms of payment for the shares, as well as the period within which the shares will be acquired.

11.6. When repurchasing its shares, the Company shall pay for them in cash.

11.7. The price at which the Company acquires its ordinary shares shall be determined according to their market value.

11.8. Shares acquired by the Company do not grant voting rights, will not be counted in the vote tally, and dividends will not be calculated on them.

11.9. Shares acquired by the Company for the purpose of later resale must be realized within one year from the time they are acquired by the Company. Otherwise, the General Meeting of Shareholders must make a decision to reduce the Company's charter fund (charter capital). Shares that have not been realized within the specified period must be canceled.

11.10. The Company shall notify its creditors in writing about the decision to reduce the charter fund (charter capital) within 30 (thirty) days from the date of the decision. Creditors

<p>shaklda xabardor qiladi. Kreditorlar Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida o'zlariga bildirish yuborilgan sanadan e'tiboran 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay Jamiyatdan o'z majburiyatlarini muddatidan oldin bajarishini va ustav fondi (ustav kapitali) kamaytirilishi bilan bog'liq zararlarning o'rnini qoplashini talab qilishga haqli.</p>	<p>have the right to demand that the Company fulfill its obligations ahead of schedule and compensate for any losses related to the reduction of the charter fund (charter capital) within 30 (thirty) days from the date they were notified by the Company.</p>
<p style="text-align: center;">XII. JAMIYATNING AKSIYALARI, ULARNI JOYLASHTIRISH TARTIBI VA E'LON QILINGAN AKSIYALARI</p> <p>12.1. Jamiyatning aksiyalari egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar bo'lib, ular turiga ko'ra oddiy aksiyalarga bo'linadi.</p> <p>12.2. Oddiy aksiyalarni imtiyozli aksiyalarga, korporativ obligatsiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlarga ayirboshlashga yo'l qo'yilmaydi.</p> <p>12.3. Aksiyalar mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli bo'lsa, o'sha yuridik yoxud jismoniy shaxs aksiyaning egasi – Jamiyat aksiyadori deb e'tirof etiladi.</p> <p>12.4. Oddiy aksiyalar ovoz beruvchi aksiyalar bo'lib, ular o'z egasiga dividendlar olish, Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi.</p> <p>12.5. Aksiyaning egasi bo'lgan aksiyadorga ovozga qo'yilgan masalani hal etishda ovoz berish huquqini beradigan oddiy aksiya Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyasidir.</p> <p>12.6. Jamiyat aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni ochiq va yopiq obuna vositasida joylashtirishga haqli.</p> <p>12.7. Aksiyalar va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni joylashtirish (ochiq yoki yopiq obuna) usullari qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qaror bilan belgilanadi.</p> <p>12.8. Aksiyalarning ochiq obunasi faqat tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolarida o'tkaziladi.</p>	<p style="text-align: center;">XII. THE COMPANY'S SHARES, THE PROCEDURE FOR THEIR PLACEMENT, AND THE ISSUED SHARES</p> <p>12.1. The shares of the Company are emission securities with the name of the shareholder written on them, and they are divided into ordinary shares according to their type.</p> <p>12.2. Ordinary shares cannot be exchanged for preferred shares, corporate bonds, or other securities.</p> <p>12.3. The legal or natural person who owns the shares based on property rights or other proprietary rights shall be recognized as the owner of the share – the shareholder of the Company.</p> <p>12.4. Ordinary shares are voting shares, and they grant the owner the right to receive dividends and participate in the management of the Company.</p> <p>12.5. An ordinary share, which grants the shareholder the right to vote on a matter, is considered a voting share of the Company.</p> <p>12.6. The Company has the right to place shares and securities convertible into shares through both open and closed subscription methods.</p> <p>12.7. The methods for placing shares and securities convertible into shares (open or closed subscription) shall be determined by the decision on the issuance of securities.</p> <p>12.8. Open subscription of shares may only be conducted in organized securities markets.</p>

<p>12.9. Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati 1 (bir) so‘m.</p> <p>12.10. Jamiyat chiqaradigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo‘lishi lozim.</p> <p>12.11. Jamiyat aksiyalarining joylashtirilishi O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.</p> <p>12.12. Jamiyatning qo‘shimcha aksiyalariga uning o‘z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo‘shimcha aksiyalar bilan to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to‘langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati bo‘yicha amalga oshiriladi.</p> <p>12.13. Jamiyatning qo‘shimcha aksiyalariga ushbu aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan joylashtirish muddati ichida haq to‘lanishi lozim.</p> <p>12.14. Jamiyat aksiyalari uchun to‘lov pul, qimmatli qog‘ozlar, boshqa mulk yoki mulkiy huquqlar yohud pul qiymatiga ega bo‘lgan boshqa huquqlarda amalga oshirilishi mumkin, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida ko‘zda tutilgan holatlar bundan mustasno.</p> <p>12.15. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga muvofiq Jamiyat joylashtirilgan aksiyalarni yiriklashtirishga haqli bo‘lib, buning natijasida Jamiyatning ikki yoki undan ortiq aksiyasi xuddi shu turdagi bitta yangi aksiyaga ayirboshlanadi. Bunda Jamiyat Ustaviga uning joylashtirilgan aksiyalarining nominal qiymatiga va soniga taalluqli tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi.</p> <p>12.16. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga ko‘ra Jamiyat joylashtirilgan aksiyalarni maydalashni amalga oshirishga haqli bo‘lib, buning natijasida Jamiyatning bir aksiyasi xuddi shu turdagi ikki yoki undan ortiq aksiyaga ayirboshlanadi. Bunda Jamiyat Ustaviga Jamiyatning joylashtirilgan aksiyalarining nominal qiymatiga va soniga taalluqli tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi.</p> <p>12.17. Jamiyat o‘zi chiqargan aksiyalar bo‘yicha ularni qaytarib sotib olish sharti bilan bitimlar tuzishga, shuningdek o‘zi chiqargan</p>	<p>12.9. The nominal value of the Company’s shares is UZS 1 (one).</p> <p>12.10. All shares issued by the Company must have the same nominal value.</p> <p>12.11. The placement of the Company’s shares shall be carried out in accordance with the procedures established by the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p> <p>12.12. In the case of additional shares of the Company being paid for from its own capital or from dividends for which a decision has been made to pay with additional shares, the placement of such shares shall be carried out at the nominal value of the Company’s shares.</p> <p>12.13. Payment for the additional shares of the Company must be made within the placement period specified in the decision on the issuance of these shares.</p> <p>12.14. Payment for the Company’s shares can be made in cash, securities, other property, or proprietary rights, or other rights that have monetary value, except in cases provided by the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p> <p>12.15. In accordance with the decision of the General Meeting of Shareholders, the Company has the right to consolidate its issued shares, resulting in the exchange of two or more of the Company’s shares of the same type for one new share. In this case, the relevant amendments regarding the nominal value and number of the Company’s issued shares shall be made to the Company’s Charter.</p> <p>12.16. In accordance with the decision of the General Meeting of Shareholders, the Company has the right to split its issued shares, resulting in the exchange of one share of the Company for two or more of the same type of shares. In this case, the relevant amendments regarding the nominal value and number of the Company’s issued shares shall be made to the Company’s Charter.</p> <p>12.17. The Company is not allowed to enter into agreements for the repurchase of its own</p>
--	--

<p>aksiyalarni ishonchli boshqaruvga berishga haqli emas.</p> <p>12.18. Jamiyat aksiyadorlarining soni chegaralanmagan.</p> <p>12.19. Jamiyat o'zi joylashtirgan qimmatli qog'ozlar erkin ayirboshlanishi mumkin bo'lgan aksiyalar beradigan huquqlarni cheklash haqida ushbu qimmatli qog'ozlar egalarining roziligisiz qaror qabul qilishga haqli emas.</p> <p>12.20. Jamiyatning qo'shimcha aksiyalari chiqarilgan holatda aksiyadorlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda Jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga proporsional ravishda imtiyozli sotib olish huquqiga ega.</p> <p>12.21. Jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) oshirish maqsadida, joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda joylashtirishga haqli bo'lgan e'lon qilingan aksiyalarning miqdori nominal qiymati 1 (bir) so'mlik 27 500 000 000 (yigirma yetti milliard besh yuz million) dona umumiy qiymati 27 500 000 000 (yigirma yetti milliard besh yuz million) so'm bo'lgan egasining nomi yozilgan hujjatsiz shakldagi oddiy aksiyalardan iborat.</p>	<p>shares, nor to place its issued shares under trust management.</p> <p>12.18. The number of the Company's shareholders is not limited.</p> <p>12.19. The Company is not entitled to make decisions regarding the restriction of the rights granted by the freely transferable securities issued by the Company without the consent of the holders of these securities.</p> <p>12.20. In the case of the issuance of additional shares by the Company, shareholders have the right to preferentially purchase these shares in proportion to their share in the Company's charter fund (charter capital) in accordance with the procedures established by the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p> <p>12.21. For the purpose of increasing the Company's charter fund (charter capital), the number of authorized shares to be placed in addition to the issued shares consists of 27 500 000 000 (twenty seven billion five hundred million) ordinary shares with a nominal value of UZS 1 (one), totaling UZS 27 500 000 000 (twenty seven billion five hundred million), in a form without a document, with the name of the shareholder written on them.</p>
<p>XIII. JAMIYATNING KORPORATIV OBLIGATSIYALARI VA BOSHQA QIMMATLI QOG'OZLARI</p> <p>13.1. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq korporativ obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarishga va joylashtirishga haqli.</p> <p>13.2. Jamiyatning korporativ obligatsiyalari Jamiyat aksiyalariga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlar bo'lishi mumkin.</p> <p>13.3. Jamiyat mol-mulk bilan ta'minlangan korporativ obligatsiyalarni ularni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish sanasidagi o'z kapitali miqdori doirasida chiqarishga haqli. Agar korporativ obligatsiyalar summasi Jamiyatning o'z kapitali miqdoridan oshsa, Jamiyat oshgan summa uchun ta'minot berishi shart.</p> <p>13.4. Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalarni chiqarish, shu jumladan</p>	<p>XIII. THE COMPANY'S CORPORATE BONDS AND OTHER SECURITIES</p> <p>13.1. The Company is entitled to issue and place corporate bonds and other securities in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p> <p>13.2. The Company's corporate bonds may be securities that can be converted into the Company's shares.</p> <p>13.3. The Company is entitled to issue secured corporate bonds within the scope of its capital as of the date of the decision to issue them. If the amount of corporate bonds exceeds the amount of the Company's equity, the Company is required to provide collateral for the excess amount.</p> <p>13.4. The issuance of corporate bonds, including convertible corporate bonds, shall be</p>

<p>aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalarni chiqarish Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.</p> <p>13.5. Jamiyat tomonidan Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalar chiqarilgan taqdirda, mazkur qaror Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi kerak.</p>	<p>carried out by decision of the Supervisory Board.</p> <p>13.5. In the event that convertible corporate bonds are issued by the Company pursuant to the decision of the Supervisory Board, this decision must be adopted unanimously by all members of the Supervisory Board.</p>
<p>XIV. JAMIYAT AKSIYADORLARINING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI</p> <p>14.1. Jamiyat aksiyadorlarining huquqlari quyidagilardan iborat:</p> <p>Jamiyatning aksiyadorlari reyestriga kiritilishi;</p> <p>depo xisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;</p> <p>Jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;</p> <p>Jamiyat tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;</p> <p>aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;</p> <p>Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;</p> <p>olgan dividendini erkin tasarruf etish;</p> <p>qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli organda, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;</p> <p>o'ziga yetkazilgan zararining o'zni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;</p> <p>o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;</p> <p>qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish va (yoki) boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish.</p> <p>14.2. Jamiyatning har bir oddiy aksiyasi uning egasi bo'lmish aksiyadorga bir xil hajmda huquqlar beradi.</p> <p>14.3. Aksiya bo'linmasdir. Agar aksiya umumiy mulk huquqi asosida bir nechta shaxsga</p>	<p>XIV. THE RIGHTS AND OBLIGATIONS OF THE SHAREHOLDERS OF THE COMPANY</p> <p>14.1. The rights of the Company's shareholders include the following:</p> <p>Inclusion in the Company's shareholders register;</p> <p>Receiving an extract from the deposit account relating to their shares;</p> <p>Receiving a portion of the Company's profit in the form of dividends;</p> <p>In the event of the Company's liquidation, receiving a portion of the property in accordance with their shareholding;</p> <p>Participating in the management of the Company through voting at the General Meetings of Shareholders;</p> <p>Receiving complete and reliable information about the results of the Company's financial and economic activities in the prescribed manner;</p> <p>Freely disposing of the dividends received;</p> <p>Protecting their rights before the authorized body regulating the securities market, as well as in court;</p> <p>Claiming compensation for the losses incurred, in accordance with the prescribed procedure;</p> <p>Joining associations and other non-governmental non-profit organizations to express and protect their interests;</p> <p>Insuring the risks related to the possibility of loss or (and) forfeiture of profits when acquiring securities.</p> <p>14.2. Each ordinary share gives its owner, the shareholder, the same rights in equal proportion.</p> <p>14.3. A share is indivisible. If a share is owned by multiple persons based on common</p>

tegishli bo'lsa, bu shaxslarning barchasi bir aksiyador deb e'tirof etiladi va aksiya bilan tasdiqlangan huquqlardan o'zlarining umumiy vakili orqali foydalanadi.

14.4. Bir turdagi aksiya unga egalik qiluvchi har bir aksiyadorga shu turdagi aksiyalarning boshqa egalari bilan bir xil bo'lgan hajmdagi huquqlarni beradi.

14.5. Oddiy aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlar mazkur Ustavga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin.

14.6. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi belgilangan tartibda kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda investitsiya vositachisi va (yoki) Qimmatli qog'ozlarning markaziy depozitariysi tomonidan beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

14.7. Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ularning oluvchisiga ushbu qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar o'tgan paytdan e'tiboran o'tadi.

14.8. Ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar, agar ular quyidagi masalalar bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishida qarshi ovoz berishgan bo'lsa yoki ovoz berishda ishtirok eta olmagan bo'lsa, o'z aksiyalarining hammasi yoki bir qismini Jamiyat tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilish huquqiga ega:

Jamiyatni qayta tashkil etish;
joylashtirilgan aksiyalarni yiriklashtirish;
yirik bitim tuzish;

Jamiyatning Ustaviga ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlarning huquqlarini cheklovchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi ustavn tasdiqlash.

Jamiyat aksiyadorlarni o'zlariga tegishli aksiyalarning Jamiyat tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilish huquqi mavjudligi,

property rights, all of these persons are considered as a single shareholder and exercise the rights certified by the share through their common representative.

14.4. A share of the same type grants each shareholder of that type the same rights as the other shareholders of that type.

14.5. Shareholders who own ordinary shares may participate in the General Meeting of Shareholders, in accordance with this Charter, with the right to vote on all matters within the meeting's authority.

14.6. The rights associated with the shares transfer to the purchaser once the relevant deposit account entry is made in the prescribed manner, and are confirmed by an extract from the deposit account provided by the investment intermediary and/or the Central Securities Depository, in accordance with the procedures established by the legislation of the Republic of Uzbekistan.

14.7. The rights confirmed by the share transfer to the recipient once the rights to the securities have passed.

14.8. Shareholders who own voting shares have the right to demand that all or part of their shares be repurchased by the Company if they voted against or were unable to participate in the vote on the following matters raised at the General Meeting of Shareholders:

Reorganization of the Company;
Consolidation of the issued shares;
Approval of a major transaction;
Amendments or additions to the Company's Charter that limit the rights of shareholders holding voting shares, or approval of a new version of the Charter.

The Company is required to inform shareholders about the right to demand that their shares be repurchased by the Company, the

qaytarib sotib olish narxi va qaytarib sotib olishni amalga oshirish tartibi to'g'risida xabardor etishi shart.

Aksiyadorlar mazkur bandeda ko'zda tutilgandan tashqari hollarda Jamiyatdan unga tegishli aksiyalarni qaytarib sotib olishni talab qilishga haqli emas.

14.9. Aksiyadorlarning soni 50 (ellik) nafardan oshmagan hollarda, mazkur bandeda belgilangan tartibda aksiyadordan aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquq qo'llaniladi.

Aksiyadorlar o'zlariga tegishli aksiyalarning soniga mutanosib ravishda Jamiyatning boshqa aksiyadorlari tomonidan sotilayotgan aksiyalarni uchinchi shaxsga taklif etilayotgan narx bo'yicha va shartlar asosida sotib olish imtiyozli huquqiga ega.

Agar Jamiyatning boshqa aksiyadorlari o'z imtiyozli huquqlaridan foydalanmagan bo'lsa, Jamiyat uning aksiyadorlari mazkur bandga muvofiq sotayotgan aksiyalarini sotib olish imtiyozli huquqiga ega.

O'z aksiyalarini sotayotgan aksiyador aksiyalarni sotish niyati to'g'risida boshqa aksiyadorlarni aksiyalarning narxini va uchinchi shaxsga taklif etish shartlarini ko'rsatgan holda to'g'ridan-to'g'ri yoxud Jamiyat orqali yozma shaklda xabardor qilishi shart.

Aksiyador sotayotgan aksiyalarni sotib olishga doir imtiyozli huquqidan foydalanish muddati aksiyador tomonidan sotish niyati to'g'risida aksiyadorlarni yozma xabardor qilgan paytdan e'tiboran 30 (o'ttiz) kunni tashkil etadi.

Agar aksiyadorlar aksiyalarni sotib olish bo'yicha o'z imtiyozli huquqidan ko'rsatilgan muddat davomida foydalanmagan bo'lsa, ushbu huquq Jamiyatga beriladi va sotilayotgan aksiyalarni aksiyadorlarning imtiyozli sotib olish huquqi tugagandan so'ng Jamiyat qolgan aksiyalar paketini to'liq yoki qisman sotib olish bo'yicha o'z imtiyozli huquqidan foydalanishi mumkin.

Aksiyadorning imtiyozli huquqi aksiyadorning nomi (aksiyador jismoniy shaxs bo'lganda uning familiyasi, ismi va otasining ismi), joylashgan joyi (aksiyador jismoniy shaxs

repurchase price, and the procedure for carrying out the repurchase.

Shareholders are not entitled to demand the repurchase of their shares from the Company except in the cases provided for in this clause.

14.9. When the number of shareholders does not exceed 50 (fifty), the preferential right to acquire shares specified in this clause shall apply.

Shareholders have the preferential right to purchase shares being sold by other shareholders of the Company, in proportion to the number of shares they hold, at the price offered to a third party and under the terms of the sale.

If other shareholders of the Company do not exercise their preferential rights, the shareholders have the preferential right to purchase shares being sold by the Company under the same conditions.

A shareholder intending to sell their shares must notify the other shareholders, in writing either directly or through the Company, about the intention to sell, providing the price of the shares and the conditions under which they are being offered to a third party.

The preferential right to purchase shares shall be exercised within 30 (thirty) days from the time the shareholder has notified the other shareholders about the intention to sell the shares.

If shareholders do not exercise their preferential right to purchase the shares within the specified period, this right will pass to the Company, and after the expiration of the preferential right of the shareholders, the Company may exercise its preferential right to purchase the remaining shares either fully or partially.

The exercise of the preferential right by a shareholder is carried out by sending a written application to the shareholder-seller through the Company, indicating the shareholder's name

bo'lganda uning yashash manzili) va sotib oladigan aksiyalarning soni ko'rsatilgan holda aksiyador sotayotgan aksiyalarni sotib olish haqidagi arizani Jamiyat orqali aksiyador-sotuvchiga yozma shaklda yuborish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunday ariza Jamiyatga ushbu imtiyozli huquqni amalga oshirish muddati ichida taqdim qilinishi lozim. Aksiyador imtiyozli huquqini to'liq yoki qisman amalga oshirishi mumkin.

Aksiyador tomonidan o'ziga tegishli aksiyalar imtiyozli huquq buzilgan holda sotilgan taqdirda, Jamiyatning istalgan aksiyadori va (yoki) Jamiyat bunday qoidabuzarlik to'g'risida aksiyador yoki Jamiyat bilgan yoxud bilishi lozim bo'lgan paytdan e'tiboran uch oy ichida o'ziga sotib oluvchining huquq va majburiyatlari o'tkazilishini sud tartibida talab qilish huquqiga ega.

Aksiyalarni olishga bo'lgan ushbu imtiyozli huquqdan boshqa shaxs foydasiga voz kechishga yo'l qo'yilmaydi.

14.10. Aksiyadorlar mazkur Ustavda va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'ladilar.

14.11. Jamiyat aksiyadorlarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

mazkur Ustavda ko'rsatilgan tartibda, miqdor va usullarda aksiyalarning narxini to'lash;

mazkur Ustavda nazarda tutilgan chegaralarda, Jamiyat boshqaruv organlarining qarorlariga bo'ysunish;

Jamiyat faoliyati haqidagi konfidensial (maxfiy), shu jumladan Jamiyat tijorat siri hisoblanadigan ma'lumotlarni oshkora qilmaslik;

o'ziga oid ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida o'z vaqtida o'z aksiyalariga bo'lgan huquqlarini hisobga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi investitsiya vositachisi va (yoki) Qimmatli qog'ozlarning markaziy depozitariysini xabardor qilish;

Jamiyat bilan bitim tuzishda affillangan ekanligi to'g'risida tuzilishi kutilayotgan bitim

(for a natural person, their surname, first name, and patronymic), their location (for a natural person residential address), and the number of shares to be purchased. This application must be submitted to the Company within the period for exercising this preferential right. The shareholder may exercise the preferential right either fully or partially.

If a shareholder sells their shares in violation of the preferential rights, any shareholder and/or the Company has the right to claim, through legal proceedings, the transfer of rights and obligations of the purchaser within three months from the time the violation is discovered or should have been discovered.

The waiver of the preferential right to purchase shares on behalf of another person is not permitted.

14.10. Shareholders will also have other rights provided for in this Charter and the legislation of the Republic of Uzbekistan.

14.11. The obligations of the shareholders of the Company are as follows:

To pay the price of shares in the manner, amount, and within the terms set forth in this Charter;

To comply with the decisions of the Company's governing bodies within the limits specified in this Charter;

Not to disclose confidential (secret) information about the Company's activities, including commercial secrets;

To inform the investment intermediary and/or the Central Securities Depository about changes in their details to ensure the proper exercise of their rights regarding shares;

To notify the Company in writing, indicating that they are affiliated with the Company in the

<p>haqidagi ma'lumotlarni, shu jumladan bitimda ishtirok etayotgan shaxslar, bitim predmeti to'g'risidagi ma'lumotlarni, tegishli shartnomaning muhim shartlarini batafsil ko'rsatgan holda yozma bildirish yuborish orqali Jamiyatni xabardor etish;</p> <p>O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan Jamiyat tomonidan xabardor (oshkor) qilish majburiyatini amalga oshirish uchun Jamiyat tomonidan so'rab olinadigan axborotni taqdim etish.</p> <p>14.12. Aksiyadorlar mazkur Ustavda va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'ladilar.</p>	<p>process of concluding a transaction, and provide detailed information about the upcoming transaction, including the persons involved in the transaction, the subject of the transaction, and the key terms of the relevant agreement. This notification must be sent to the Company;</p> <p>To provide any information requested by the Company in order to fulfill the legal obligations of disclosure as specified by the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p> <p>14.12. Shareholders shall also have other obligations as provided in this Charter and the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p>
<p>XV. JAMIYATNING FONDLARI</p> <p>15.1. Jamiyat o'z faoliyatini yuritishda sug'urta va boshqa zaxira fondlarini tashkil qiladi.</p> <p>15.2. Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) 15 (o'n besh) foizi miqdorda zaxira fondi tashkil etiladi.</p> <p>15.3. Jamiyatning zaxira fondi mazkur Ustavda belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydadan har yilgi majburiy ajratmalar orqali shakllantiriladi. Har yilgi ajratmalar miqdori Jamiyat Ustavida belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydaning 5 (besh) foizidan kam bo'lmasligi kerak.</p> <p>15.4. Jamiyatning zaxira fondi faqat O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida ruxsat etilgan maqsadlarga ishlatiladi.</p> <p>15.5. Agar zaxira fondi to'liq yoki qisman sarflansa, majburiy ajratmalar o'tkazish tiklanadi.</p> <p>15.6. Jamiyat tomonidan boshqa fondlar ham tashkil etilishi mumkin.</p>	<p>XV. THE COMPANY'S FUNDS</p> <p>15.1. The Company establishes insurance and other reserve funds in the course of its activities.</p> <p>15.2. A reserve fund will be established in the amount of 15 (fifteen) percent of the Company's charter fund (charter capital).</p> <p>15.3. The Company's reserve fund is formed through annual mandatory contributions from net profit until it reaches the amount specified in this Charter. The amount of the annual contributions must not be less than 5 (five) percent of the net profit until the specified amount in the Charter is reached.</p> <p>15.4. The Company's reserve fund will only be used for purposes permitted by the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p> <p>15.5. If the reserve fund is fully or partially spent, mandatory contributions will be resumed.</p> <p>15.6. Other funds may also be established by the Company.</p>
<p>XVI. JAMIYAT SOF FOYDASINI VA DIVIDENDLARINI TAQSIMLASH HAMDA ZARARLARNING O'RNINI QOPLASH TARTIBI</p> <p>16.1. Jamiyat sof foydani taqsimlash masalalarida to'liq mustaqildir. Jamiyatning sof foydasi soliqlar va yig'imlar to'langanidan so'ng, Jamiyat ixtiyorida qoladi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga asosan Jamiyatning</p>	<p>XVI. DISTRIBUTION OF THE COMPANY'S NET PROFIT AND DIVIDENDS, AND THE PROCEDURE FOR COVERING LOSSES</p> <p>16.1. The Company is fully independent in matters of distributing its net profit. After taxes and fees are made, the net profit remains at the Company's discretion and, based on the decision of the General Meeting of</p>

zaxira fondini shakllantirishga yo'naltiriladi, aksiyadorlar orasida dividend shaklida taqsimlanadi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq boshqa maqsadlarga ishlatiladi.

16.2. Dividendlar Jamiyat sof foydasining aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan qismidir.

16.3. Dividendlar Jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydadan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.

16.4. Jamiyat aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi lozim.

16.5. Dividendlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yohud Jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.

16.6. Dividendlar aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

16.7. Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlarni olishga bo'lgan teng huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

16.8. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Bunday qaror tegishli davr tugaganidan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

16.9. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Shareholders, will be directed to form the Company's reserve fund, distributed among the shareholders in the form of dividends, or used for other purposes in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan.

16.2. Dividends are the portion of the Company's net profit to be distributed among the shareholders.

16.3. Dividends are paid from the Company's retained earnings and/or undistributed profits of previous years.

16.4. The Company must pay the declared dividends for each type of share.

16.5. Dividends can be paid in cash or other legal payment methods, or in the Company's securities, based on the decision of the General Meeting of Shareholders.

16.6. Dividends are distributed among shareholders in proportion to the number and type of shares they hold.

16.7. Payment of dividends for ordinary shares by the Company is carried out in accordance with the equal rights of shareholders to receive dividends.

16.8. The Company has the right to make decisions on the payment of dividends on issued shares based on the results of the first quarter, half-year, nine months, and the full financial year. Such a decision can be made within three months after the respective period ends.

16.9. The decision regarding the payment of dividends for each type of shares, the amount of the dividend, the form of payment, and the procedure for payment shall be made by the General Meeting of Shareholders based on the recommendation of the Supervisory Board, and in the presence of an audit report on the reliability of the financial statements, based on the data from the financial reports. The amount of dividends cannot exceed the amount recommended by the Supervisory Board.

<p>16.10. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyalarning muayyan turlari bo'yicha dividendlar to'lamalik to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.</p> <p>16.11. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.</p> <p>16.12. Dividendlarni to'lash muddati va tartibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi. Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan kech bo'lmasligi lozim.</p> <p>16.13. Egasi yoki egasining qonuniy huquqiy vorisi yoxud merosxo'ri tomonidan uch yil ichida talab qilib olinmagan dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra Jamiyat ixtiyorida qoladi.</p> <p>16.14. Aksiyadorlarga dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reyestrda qayd etilgan shaxslar aksiyalar bo'yicha dividend olish huquqiga ega.</p> <p>16.15. Jamiyat quyidagi hollarda aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga hamda dividendlar to'lashga haqli emas:</p> <p>Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) hammasi uning ta'sis etilishi chog'ida to'liq to'lab bo'linguniga qadar;</p> <p>agar dividendlar to'lanadigan paytda Jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki Jamiyatda shunday belgilar dividendlarni to'lash natijasida paydo bo'lsa;</p> <p>agar Jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav fondi (ustav kapitali) va zaxira fondi summasidan kam bo'lsa.</p> <p>16.16. Jamiyat dividendlar miqdorini ulardan undiriladigan soliqlar va yig'imlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi.</p> <p>16.17. Jamiyatning zararlari zaxira fondi mablag'lari, aksiyadorlarning maqsadli badallari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa manbalar</p>	<p>16.10. The General Meeting of Shareholders has the right to decide not to pay dividends on certain types of shares.</p> <p>16.11. The decision on the payment of dividends must indicate the start and end dates of the dividend payment period.</p> <p>16.12. The payment date and procedure for dividends are determined by the decision of the General Meeting of Shareholders. The payment period for dividends must not exceed sixty days from the date of the decision.</p> <p>16.13. If dividends are not claimed by the owner or their legal heir or successor within three years, the dividends will remain at the Company's disposal according to the decision of the General Meeting of Shareholders.</p> <p>16.14. Shareholders who are registered in the shareholder registry formed for the purpose of holding the General Meeting of Shareholders, where the decision to pay dividends was made, are entitled to receive dividends on the shares.</p> <p>16.15. The Company is not entitled to make a decision on the payment of dividends on shares or to pay dividends in the following cases:</p> <p>Until the entire charter fund (charter capital) of the Company is fully paid at the time of its establishment;</p> <p>If at the time of dividend payment, there are signs of bankruptcy within the Company, or such signs arise as a result of the payment of dividends;</p> <p>If the value of the Company's net assets is less than the total amount of its charter fund (charter capital) and reserve fund.</p> <p>16.16. The Company announces the amount of dividends excluding taxes and fees that will be withheld from them.</p> <p>16.17. The Company's losses may be covered from the reserve fund, shareholders' targeted contributions, and other sources not</p>
---	---

<p>hisobidan qoplanishi mumkin.</p> <p>16.18. Jamiyat tuzilgan shartnomaga muvofiq Qimmatli qog'ozlarning markaziy depozitariysi va (yoki) investitsiya vositachilari orqali dividendlar to'lovini amalga oshirish huquqiga ega.</p>	<p>prohibited by the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p> <p>16.18. The Company has the right to make dividend payments through the Central Depository of Securities and/or investment intermediaries, in accordance with the agreement entered into.</p>
<p>XVII. JAMIYATNING BOSHQARUV ORGANLARI</p> <p>17.1. Jamiyatning boshqaruv organlari quyidagilardan iborat:</p> <p>Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi;</p> <p>Kuzatuv kengashi;</p> <p>Yakkaboshchilik asosida ijro etuvchi organ – Jamiyat Bosh direktori.</p>	<p>XVII. GOVERNING BODIES OF THE COMPANY</p> <p>17.1. The governing bodies of the Company consist of the following:</p> <p>General Meeting of Shareholders;</p> <p>Supervisory Board;</p> <p>Sole Executive Body – the General Director of the Company.</p>
<p>XVIII. JAMIYAT AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG'ILISHI</p> <p>18.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.</p> <p>18.2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini Kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi.</p> <p>18.3. Jamiyat aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi har yili moliya yili tugaganidan keyin o'tkaziladi, ammo 6 (olti) oydan kechiktirmay o'tkazilishi lozim.</p> <p>18.4. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida Kuzatuv kengashini saylash to'g'risidagi, Jamiyatning Bosh direktori bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar hal etiladi, shuningdek Jamiyatning yillik hisoboti, Jamiyatning Bosh direktori va Kuzatuv kengashining Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlari va boshqa hujjatlari ko'rib chiqiladi.</p> <p>18.5. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir.</p> <p>18.6. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi,</p>	<p>XVIII. GENERAL MEETING OF SHAREHOLDERS OF THE COMPANY</p> <p>18.1. The General Meeting of Shareholders is the highest governing body of the Company.</p> <p>18.2. The General Meeting of Shareholders is conducted by the Chairman of the Supervisory Board, or, in case of their absence for valid reasons, by one of the members of the Supervisory Board.</p> <p>18.3. The annual general meeting of shareholders of the Company shall be held after the end of the financial year, but no later than six months after its completion.</p> <p>18.4. The annual general meeting of shareholders shall address issues such as the election of the Supervisory Board, the extension, renewal, or termination of the contract with the General Director of the Company, and shall also review the Company's annual report, reports on the measures taken by the General Director and the Supervisory Board to achieve the Company's development strategy, and other documents.</p> <p>18.5. Any general meeting held outside of the annual meeting is considered an extraordinary meeting.</p> <p>18.6. The date and procedure for holding the General Meeting of Shareholders, the procedure for notifying shareholders about the meeting,</p>

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

18.7. Jamiyatning barcha oddiy aksiyalari bitta aksiyadorga tegishli bo'lganda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilmaydi.

Mazkur Ustavning 18.8-bandidagi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar barcha oddiy aksiyalarga egalik qiluvchi yagona aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtiriladi. Bunda O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va mazkur Ustavning aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish, uni chaqirish va o'tkazish tartibini hamda muddatlarini belgilovchi qoidalari qo'llanilmaydi, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish muddatlariga taalluqli qoidalar bundan mustasno.

18.8. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

Jamiyat Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash;

Jamiyatni qayta tashkil etish;

Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

Kuzatuv kengashi son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Kuzatuv kengashi a'zolariga mukofot va kompensatsiyalar miqdorini belgilash;

Jamiyatning Bosh direktorini saylash (tayinlash) va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Jamiyatning Bosh direktoriga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;

and the list of materials (information) to be provided to shareholders during the preparation for the meeting will be determined by the Supervisory Board.

18.7. When all of the Company's common shares are owned by a single shareholder, the General Meeting of Shareholders will not be held.

Decisions on matters within the authority of the General Meeting of Shareholders as outlined in Clause 18.8 of this Charter will be made by the sole shareholder, who owns all the common shares, in a sole manner and formalized in writing. In this case, the provisions of the applicable legislation of the Republic of Uzbekistan and this Charter, which govern the preparation, calling, and holding of the General Meeting of Shareholders, and the related deadlines, will not apply, except for the provisions related to the deadlines for holding the annual general meeting of shareholders.

18.8. The scope of authority of the General Meeting of Shareholders includes the following:

Amending and supplementing the Charter of the Company or approving the new version of the Company's Charter;

Reorganizing the Company;

Liquidating the Company, appointing a liquidator (liquidation commission), and approving the interim and final liquidation balances;

Determining the number of members of the Supervisory Board, electing its members, terminating their powers prematurely;

Determining the amount of rewards and compensations for the members of the Supervisory Board;

Electing (appointing) the General Director of the Company and terminating his powers ahead of schedule;

Determining the salary and/or compensation to be paid to the General Director of the Company, as well as set the maximum amounts for them;

<p>e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;</p> <p>Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish;</p> <p>Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish;</p> <p>o'z aksiyalarini olish;</p> <p>Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;</p> <p>Jamiyatning yillik hisobotini, shuningdek Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;</p> <p>Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;</p> <p>Kuzatuv kengashining o'z vakolatlari doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Jamiyatni boshqarishga doir O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan hisobotlarini eshitish;</p> <p>qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;</p> <p>O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash;</p> <p>ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning Jamiyat aksiyalarini va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarini olishga doir imtiyozli huquqini qo'llamaslik to'g'risida qaror qabul qilish;</p> <p>aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;</p> <p>aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;</p> <p>O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 8 va 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda Jamiyat tomonidan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;</p>	<p>Determining the maximum amount of issued shares;</p> <p>Increasing the Company's authorized capital (charter capital);</p> <p>Reducing the Company's authorized capital (charter capital);</p> <p>Purchasing its own shares;</p> <p>Approving the organizational structure of the Company;</p> <p>Approving the Company's annual report, as well as the strategy for the medium-term and long-term development of the Company based on its main areas of activity and objectives, with specific timeframes;</p> <p>Distributing the Company's profits and losses;</p> <p>Hearing the reports of the Supervisory Board on matters within its authority, including ensuring compliance with legal requirements regarding the management of the Company;</p> <p>Making a decision on the issuance of securities' returns;</p> <p>Determining the price for placing shares (offering the issued securities for sale) in accordance with the Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights";</p> <p>Making a decision not to apply the preferential right for shareholders who hold voting shares to acquire the Company's shares and securities convertible into shares;</p> <p>Approving the regulations of the General Meeting of Shareholders;</p> <p>Splitting and consolidating shares;</p> <p>Making decisions on contracts to be concluded by the Company under the circumstances foreseen in Chapters 8 and 9 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholder Rights";</p>
---	---

majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

Jamiyatning Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risidagi, Kuzatuv kengashi to'g'risidagi, Ijroiya organi to'g'risidagi Nizomlarini va vakolat doirasidagi boshqa ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash;

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va mazkur Ustavda ko'zda tutilgan boshqa masalalarni hal etish.

18.9. Mazkur Ustavning 18.8-bandiga muvofiq Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Kuzatuv kengashiga hal qilishi uchun berilishi mumkin emas, quyidagi masalalar bundan mustasno:

Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish, shuningdek Jamiyat ustaviga Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish hamda Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash;

qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

Jamiyatning Bosh direktorini saylash (tayinlash) va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Jamiyatning Bosh direktoriga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash.

18.10. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha Jamiyatning oddiy aksiyalari egalari ovoz berish huquqiga ega.

18.11. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori, agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida

Designating the auditing organization for the mandatory audit, determining the maximum amount to be paid for the services of this organization, and making decisions regarding the conclusion or termination of the contract with the organization;

Approving the Regulations "On the General Meeting of Shareholders of the Company", "On the Supervisory Board of the Company", and "On the Executive Body of the Company", along with other internal regulatory documents within its authority;

Resolving other issues foreseen by the legislation of the Republic of Uzbekistan and this Charter.

18.9. In accordance with Clause 18.8 of this Charter, issues within the scope of the General Meeting of Shareholders' authority cannot be delegated to the Supervisory Board for decision-making, except the following matters:

Increasing the charter fund (capital) of the Company, as well as making amendments and additions to the Company's Charter related to increasing the charter fund (capital) and reducing the number of the Company's issued shares;

Determining the price for placing shares (offering the issued securities for sale) in accordance with the Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights";

Making a decision on the issuance of securities' returns;

Electing (appointing) the General Director of the Company and terminating his powers ahead of schedule;

Determining the salary and/or compensation to be paid to the General Director of the Company, as well as set the maximum amounts for them.

18.10. Shareholders holding ordinary shares in the Company have the right to vote on matters put to a vote at the General Meeting of Shareholders.

18.11. The decision of the General Meeting of Shareholders on a matter put to a vote, unless otherwise stipulated by the legislation of the

va mazkur Ustavda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo'lgan, yig'ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ko'pchilik (oddiy ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.

18.12. Mazkur Ustavning 18.8-bandi ikkinchi-to'rtinchi, to'qqizinchi, yigirma uchinchi va yigirma to'rtinchi xatboshilarida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qaror aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning to'rtidan uch qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

18.13. Soliqqa oid yoki davlat oldidagi boshqa qarzdorlik hisobiga Jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushini shakllantirish yoki oshirish to'g'risidagi qaror Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining kamida uchdan ikki qismi egalari bo'lgan aksiyadorlarning roziligi mavjud bo'lgan taqdirda, aksiyadorlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

18.14. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini olib borish tartibi bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qaror qabul qilish tartibi Jamiyatning Ustavida yoki Jamiyatning aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan boshqa hujjatlarida belgilab qo'yiladi.

18.15. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga, shuningdek kun tartibiga o'zgartirishlar kiritishga haqli emas.

18.16. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida hamda Jamiyat Ustavida nazarda tutilgan tartib va muddatlarda, biroq bu qarorlar qabul qilingan sanadan e'tiboran 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi.

18.17. Agar aksiyador uzrli sabablarga ko'ra aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etmagan yoki bunday qaror qabul qilinishiga

Republic of Uzbekistan or this Charter, shall be adopted by the majority (simple majority) of the shareholders holding voting shares present at the meeting.

18.12. A decision on matters specified in paragraphs two-four, nine, twenty three, and twenty four of Clause 18.8 of this Charter shall be adopted by the General Meeting of Shareholders with the approval of a majority of the shareholders holding voting shares present at the meeting, consisting of at least three-quarters of the total shares of those present.

18.13. A decision to form or increase the state share in the Company's charter fund (share capital) for tax or other state liabilities shall be adopted by the General Meeting of Shareholders with the consent of shareholders owning at least two-thirds of the issued voting shares, by a simple majority vote of the shareholders.

18.14. The procedure for holding the General Meeting of Shareholders and the process for adopting decisions by the General Meeting of Shareholders shall be defined in the Company's Charter or other documents approved by the decision of the General Meeting of Shareholders.

18.15. The General Meeting of Shareholders is not authorized to adopt decisions on matters not included in the agenda or to introduce changes to the agenda.

18.16. The decisions adopted by the General Meeting of Shareholders, as well as the voting results, shall be communicated to the shareholders within 30 (thirty) days from the date of the decision, in accordance with the procedure and within the timeframes specified by the legislation of the Republic of Uzbekistan and the Company's Charter.

18.17. If a shareholder was unable to attend the General Meeting of Shareholders for a valid reason or voted against the decision, they have

qarshi ovoz bergan bo'lsa, u aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qaror ustidan sudga shikoyat qilishga haqlidir.

18.18. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan 3 (uch) ish kuni oldin shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reyestrda qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

18.19. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida 21 (yigirma bir) kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan 30 (o'ttiz) kun oldin Korporativ axborotning yagona portalida, Jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

18.20. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 10 (o'n) kundan kam va 30 (o'ttiz) kundan ko'p etib belgilanishi mumkin emas.

18.21. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra uning o'z tashabbusi asosida o'tkaziladi.

18.22. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'tkazilishini talab qilayotgan aksiyadorlarga tegishli ovoz beruvchi aksiyalar ulushi bunday talabni ko'rsatish sanasida aniqlanadi.

18.23. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma asosida amalga oshiriladi. Aksiyador aksiyadorlarning umumiy yig'ilishidagi o'z vakilini istalgan vaqtda almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqlidir.

18.24. Ovozlarni sanab chiqish, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro'yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun Kuzatuv kengashi tomonidan sanoq

the right to file a lawsuit against the decision adopted by the General Meeting of Shareholders.

18.18. Shareholders entitled to participate in the General Meeting of Shareholders are those shareholders registered in the Company's shareholder register, formed at least 3 (three) business days prior to the date of the General Meeting.

18.19. The notice of the General Meeting of Shareholders shall be published no later than 21 (twenty-one) days, but no more than 30 (thirty) days before the date of the General Meeting of Shareholders. The notice will be posted on the Single Corporate Information Portal, the Company's official website, and in the media, as well as sent to shareholders via email.

18.20. The date of the General Meeting of Shareholders cannot be set less than 10 (ten) days and more than 30 (thirty) days after the decision to hold the meeting is made.

18.21. An extraordinary General Meeting of Shareholders may be convened at the initiative of the Supervisory Board.

18.22. The proportion of voting shares belonging to shareholders requesting the convening of an extraordinary General Meeting of Shareholders is determined on the date the request is made.

18.23. The right to participate in the General Meeting of Shareholders is exercised either personally by the shareholder or by their representative on the basis of a duly executed power of attorney. A shareholder has the right to replace their representative at any time or to participate in the meeting personally.

18.24. To count the votes, register shareholders for participation in the General Meeting, and distribute voting ballots, the Supervisory Board shall establish a counting commission. The number of members and the

komissiyasi tuzilib, uning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

18.25. Agar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 50 (ellik) foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo'ladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum bo'lmasa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi e'lon qilinadi.

Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazishda kun tartibini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Agar aksiyadorlarning o'tkazilmay qolgan yig'ilishi o'rniga chaqirilgan takroriy umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 40 (qirq) foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishi vakolatli bo'ladi.

18.26. Kvorum bo'lmaganligi sababli aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi 20 (yigirma) kundan kam muddatga ko'chirilgan taqdirda, umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar o'tkazilmay qolgan umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reyestriga muvofiq aniqlanadi.

18.27. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin 10 (o'n) kundan kechiktirmay 2 (ikki) nusxada tuziladi.

Bayonnomaning har ikkala nusxasi umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

18.28. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini tashkillashtirish va o'tkazish bilan bog'liq boshqa masalalar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan tartibga solinadi va

personal composition of the commission shall be approved by the General Meeting of Shareholders.

18.25. If, at the time of the registration for participation in the General Meeting, shareholders (or their representatives) who own more than 50 (fifty) percent of the total voting shares of the Company are registered, the General Meeting of Shareholders shall be considered valid (quorum will be established).

If there is no quorum for the General Meeting of Shareholders, the date for the repeated General Meeting of Shareholders will be announced.

No changes to the agenda will be allowed for the repeated General Meeting of Shareholders.

If, at the time of registration for the repeated General Meeting of Shareholders, shareholders (or their representatives) who own more than 40 (forty) percent of the total voting shares of the Company are registered, the repeated General Meeting of Shareholders will be considered valid.

18.26. If the date for the General Meeting of Shareholders is postponed due to the lack of quorum by less than 20 (twenty) days, the shareholders who are entitled to participate in the General Meeting will be determined according to the register of shareholders who were entitled to participate in the meeting that was not held.

18.27. The minutes of the General Meeting of Shareholders will be prepared in 2 (two) copies no later than 10 (ten) days after the meeting has been concluded. Both copies of the minutes must be signed by the chairperson and the secretary of the meeting.

18.28. Other matters related to the organization and conduction of the General Meeting of Shareholders are regulated by the legislation of the Republic of Uzbekistan and

<p>Jamiyatning “Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi to‘g‘risida”gi Nizomi bilan belgilanadi.</p>	<p>established by the Company’s Regulation “On the General Meeting of Shareholders”.</p>
<p style="text-align: center;">XIX. KUZATUV KENGASHI</p> <p>19.1. Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi va Jamiyat Ustavi bilan aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.</p> <p>19.2. Kuzatuv kengashi o‘z ishini O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi, mazkur Ustav va Jamiyatning “Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi Nizomi asosida amalga oshiradi.</p> <p>19.3. Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:</p> <p>Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida Bosh direktorning hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;</p> <p>aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishlarini chaqirish, bundan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi uni chaqirishni talab qilgan shaxslar tomonidan chaqirilgan hollar mustasno;</p> <p>aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining kun tartibini tayyorlash;</p> <p>aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;</p> <p>aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;</p> <p>mazkur Ustavning 18.8-bandi ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi hal qilishi uchun kiritish;</p> <p>mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;</p> <p>Jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash. Bunda Jamiyatning kelgusi yilga mo‘ljallangan</p>	<p style="text-align: center;">XIX. SUPERVISORY BOARD</p> <p>19.1. The Supervisory Board carries out overall management of the Company’s activities, except for the matters within the scope of authority of the General Meeting of Shareholders as determined by the legislation of the Republic of Uzbekistan and the Company’s Charter.</p> <p>19.2. The Supervisory Board conducts its work based on the legislation of the Republic of Uzbekistan, this Charter, and the Company’s Regulation “On the Supervisory Board”.</p> <p>19.3. The scope of authority of the Supervisory Board includes the following:</p> <p>Regularly listening to the report of the General Director on measures being taken to achieve the Company’s development strategy and determining the key directions of the Company’s activities;</p> <p>Calling the shareholders’ annual and extraordinary general meetings, except when the extraordinary general meeting is called by those who demand it;</p> <p>Preparing the agenda for the General Meeting of Shareholders;</p> <p>Determining the date, time, and location of the General Meeting of Shareholders;</p> <p>Determining the date for forming the shareholders’ register for informing shareholders about the general meeting;</p> <p>Introducing matters into the General Meeting of Shareholders that are specified in paragraph 18.8 of this Charter;</p> <p>Organizing the determination of the market value of the property;</p> <p>Approving the Company’s annual business plan. The business plan for the coming year</p>

biznes-rejasi joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay tasdiqlanishi lozim;

Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish va Jamiyatning "Ichki audit xizmati to'g'risida"gi Nizomini tasdiqlash;

Jamiyat faoliyatiga daxldor bo'lgan har qanday hujjatdan erkin foydalanish va Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni Bosh direktordan olish. Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

Jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

Jamiyatning filiallari va sotuv markazlarini tashkil etish hamda vakolatxonalarini ochish;

Jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 8 va 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda Jamiyat tomonidan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda tuzish;

Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

should be approved by December 1st of the current year at the latest;

Establishing an internal audit service, appointing its employees, regularly reviewing its reports, and approving the Company's Regulation "On Internal Audit Service";

Free access to any documents related to the activities of the General Director that are required for the Supervisory Board to fulfill its assigned tasks. The Supervisory Board and its members can only use these documents for official purposes;

Deciding on conducting audits (except for mandatory audits), appointing the auditing organization, determining the maximum fee for its services, and entering into (or terminating) contracts with the auditor;

Making recommendations regarding the amount of dividends, their payment methods, and procedures;

Deciding on the use of the Company's reserve and other funds;

Organizing the establishment of the Company's branches, sales centers, and representative offices;

Deciding on the formation of the Company's subsidiaries and affiliates;

Making decisions on transactions to be concluded by the Company in accordance with Articles 8 and 9 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights";

Entering into transactions related to the Company's participation in commercial and non-commercial organizations in the manner prescribed by the legislation of the Republic of Uzbekistan;

Deciding on the issuance of corporate bonds, including convertible bonds;

Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish, shuningdek Jamiyat ustaviga Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish hamda Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish;

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash yuzasidan aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga tavsiya kiritish;

qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risidagi masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish;

Jamiyatning Bosh direktorini saylash (tayinlash) va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish to'g'risidagi masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish;

Jamiyatning Bosh direktoriga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash to'g'risidagi masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va mazkur Ustavda ko'zda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

19.4. Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Bosh direktorga o'tkazilishi mumkin emas.

19.5. Kuzatuv kengashining a'zolari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va mazkur Ustavda nazarda tutilgan tartibda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi.

Kuzatuv kengashi 3 (uch) kishidan iborat tarkibda saylanadi.

Adopting decisions on repurchasing the Company's corporate bonds;

Initial consideration of matters regarding the increasing the Company's authorized capital (fund) and amending the Company's Charter regarding increasing the authorized capital (fund) and reducing the number of the Company's issued shares;

Submitting a recommendation to the General Meeting of Shareholders regarding the determination of the price for the placement of shares (or the issuance of securities for trading), in accordance with the Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights";

Initial consideration of matters related to the issuance of securities and their yield;

Initial consideration of matters regarding the election (appointment) of the Company's General Director and the early termination of his/her powers;

Initial consideration of matters regarding the determination of the salary and (or) compensation of the Company's General Director, as well as the setting of the maximum amounts for them.

Resolving other matters provided for by the legislation of the Republic of Uzbekistan and this Charter.

19.4. The matters included in the scope of authority of the Supervisory Board cannot be transferred to the General Director for resolution.

19.5. The members of the Supervisory Board are elected by the General Meeting of Shareholders for a term of three years, in accordance with the procedures provided by the legislation of the Republic of Uzbekistan and this Charter.

The Supervisory Board consists of 3 (three) members.

19.6. Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

19.7. Bosh direktor, Jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar va ushbu jamiyatlarning boshqaruv organlari a'zolari Kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.

Ayni shu Jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar Kuzatuv kengashi a'zosi bo'lishi mumkin emas.

19.8. Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar Jamiyatning "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi Nizomida belgilab qo'yiladi.

19.9. Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ularni ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqlidir. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

19.10. Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan ularning o'z'lari orasidan Kuzatuv kengashi a'zolari umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

Kuzatuv kengashi o'z raisini jami a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqlidir.

19.11. Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida raislik qiladi.

Kuzatuv kengashi raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

19.12. Kuzatuv kengashining majlisi Kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning

19.6. Persons elected to the composition of the Supervisory Board may be re-elected indefinitely.

19.7. General Director, individuals working under employment contracts (contracts) in subsidiaries and dependent companies of the Company, and members of the management bodies of these companies cannot be elected to the Supervisory Board.

Similarly, individuals working under employment contracts (contracts) in the Company cannot be members of the Supervisory Board.

19.8. The requirements for individuals to be elected to the Supervisory Board are set forth in the Company's Regulation "On the Supervisory Board".

19.9. The election of the members of the Supervisory Board is carried out through cumulative voting.

In cumulative voting, the number of votes allocated to each shareholder is multiplied by the number of individuals to be elected to the Supervisory Board. The shareholder has the right to allocate all of their votes to a single candidate or distribute them between two or more candidates. The candidates who receive the most votes are considered elected to the Supervisory Board.

19.10. The Chairman of the Supervisory Board is elected by the members of the Supervisory Board from among themselves, by a majority vote of the total number of members.

The Supervisory Board has the right to re-elect its Chairman by the majority vote of all members.

19.11. The Chairman of the Supervisory Board organizes its work, calls meetings of the Supervisory Board, chairs them, organizes the keeping of minutes at the meetings, and chairs the General Meeting of Shareholders.

If there is no Chairman of the Supervisory Board, one of its members will perform the Chairman's duties.

19.12. The meetings of the Supervisory Board are called by the Chairman of the

o'z tashabbusiga ko'ra, Kuzatuv kengashi a'zolari, Bosh direktor va Ichki audit xizmati rahbari talabiga ko'ra chaqiriladi va ular majlis kun tartibi yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega.

19.13. Kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun quorum Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining 75 (etmish besh) foizidan kam bo'lmasligi kerak.

19.14. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha Kuzatuv kengashining qarori, agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va mazkur Ustavda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega.

Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi.

Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda Kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilishda Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

19.15. Kuzatuv kengashi a'zolarining soni mazkur Ustavning 19.5-bandida belgilangan miqdorning 75 (etmish besh) foizidan kam bo'lgan taqdirda, Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi chaqirilishi shart.

Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek Bosh direktorning vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

19.16. Kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng o'n kundan kechiktirmay tuziladi.

Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

Supervisory Board on his/her initiative, by the Supervisory Board, and the Head of the Internal Audit Service. They have the right to propose items for the meeting's agenda.

19.13. To conduct a meeting of the Supervisory Board, a quorum must be met, with at least 75% of the members elected to the Supervisory Board present.

19.14. Decisions on issues put to a vote by the Supervisory Board are made by the majority vote of those present at the meeting, unless otherwise provided by the legislation of the Republic of Uzbekistan or this Charter.

Each member of the Supervisory Board has one vote when resolving issues.

A member of the Supervisory Board may not transfer their vote to another member of the Supervisory Board.

In case of a tie in votes, the Chairman of the Supervisory Board has the casting vote.

19.15. If the number of members of the Supervisory Board is less than 75 (seventy-five) percent of the number specified in paragraph 19.5 of this Charter, an extraordinary general meeting of shareholders must be called to elect a new composition of the Supervisory Board.

The remaining members of the Supervisory Board are authorized to make a decision to call such an extraordinary general meeting of shareholders and, in case the powers of the General Director are prematurely terminated, to appoint an acting Chairman.

19.16. The minutes record is kept for the meetings of the Supervisory Board. The minutes of the Supervisory Board meeting must be prepared within ten days after the meeting is held.

The minutes of the meeting will include the following information:

date, time, and place of the meeting;

majlisda ishtirok etadigan, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etadigan shaxslar;

majlisda hozir bo'lgan shaxslar;

majlisning kun tartibi;

ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;

qabul qilingan qarorlar.

19.17. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

Kuzatuv kengashining qarorlari sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Bosh direktorga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda, mazkur qaror haqidagi axborot Bosh direktorga Kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

19.18. Kuzatuv kengashining majlisi o'tkazilishini tashkil qilish, Kuzatuv kengashi majlisi o'tkazilishi tartibi va qoidalariga rioya qilinishi, Kuzatuv kengashi majlisi qarorlarining rasmiylashtirilishi va ijrosini ta'minlash uchun Bosh direktorga yetkazilishini Kuzatuv kengashi kotibi amalga oshiradi.

19.19. Kuzatuv kengashi a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davrda haq to'lanishi va Kuzatuv kengashining a'zosi vazifasini bajarish bilan bog'liq xarajatlari qoplanishi mumkin.

19.20. Kuzatuv kengashi a'zolariga mukofot to'lash davri sifatida Jamiyatning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sanadan boshlab Jamiyatning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanagacha hisobga olinadi.

19.21. Kuzatuv kengashi a'zosi yoki a'zolarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilganida va Kuzatuv kengashiga yangi a'zo

individuals attending the meeting, including those participating remotely using information and communication technologies;

individuals present at the meeting;

agenda of the meeting;

issues put to a vote, along with the results of the voting;

decisions made.

19.17. The minutes of the Supervisory Board meeting will be signed by the members of the Supervisory Board present at the meeting, and they will be responsible for the proper formalization of the minutes.

The decisions of the Supervisory Board may be adopted by unanimous vote of all members of the Supervisory Board through external voting (by inquiry).

The minutes of the Supervisory Board meeting, once signed, will be submitted to the General Director for execution. If the Supervisory Board has made a decision to convene the General Meeting of Shareholders, the information about this decision will be submitted to the General Director on the day the Supervisory Board meeting is held.

19.18. The organization of the Supervisory Board meeting, adherence to the procedure and rules for holding the meeting, the formalization of the decisions of the Supervisory Board meeting, and ensuring their execution, including communication to the General Director, will be carried out by the Secretary of the Supervisory Board.

19.19. The members of the Supervisory Board may be paid for performing their duties, and their expenses related to fulfilling the role of a Supervisory Board member may be reimbursed during their term.

19.20. The period for paying remuneration to the members of the Supervisory Board is considered from the date of the Company's annual general meeting to the date of the next annual general meeting of the Company.

19.21. In case the powers of a member or members of the Supervisory Board are terminated before the expiration of their term

yoki a'zolar tayinlangan taqdirda, mukofot miqdori Kuzatuv kengashi a'zosiga haqiqiy ishlagan vaqtiga mutanosib tarzda hisoblanadi.

19.22. Kuzatuv kengashi a'zolariga to'lanadigan mukofot miqdori aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilanadi.

19.23. Kuzatuv kengashining a'zolari, o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z burchlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari lozim.

Kuzatuv kengashi a'zolari Jamiyat va uning aksiyadorlari oldidagi o'z majburiyatlarini zarur darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va mazkur Ustavga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Kuzatuv kengashi a'zolari javobgar bo'lmaydi, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan hollar bundan mustasno.

and new members are appointed to the Supervisory Board, the amount of remuneration will be calculated proportionally to the actual time worked by the member of the Supervisory Board.

19.22. The amount of remuneration paid to the members of the Supervisory Board is determined by the decision of the General Meeting of Shareholders.

19.23. The members of the Supervisory Board must act in the best interests of the Company while exercising their rights and performing their duties.

The members of the Supervisory Board are liable in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan and this Charter for failing to fulfill their obligations towards the Company and its shareholders.

Members of the Supervisory Board who did not participate in voting for a decision that caused damage to the Company or voted against such a decision are not liable, except in cases stipulated by the legislation of the Republic of Uzbekistan.

XX. JAMIYATNING IJROIYA ORGANI

20.1. Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlik yakkaboshchilik asosidagi Ijroiya organi – Bosh direktor tomonidan amalga oshiriladi.

20.2. Bosh direktor yuqori malakali, shu jumladan xorijiy mutaxassislar orasidan tanlab olinadi va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi qarori bilan saylanishi (tayinlanishi) mumkin.

20.3. Bosh direktor aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga va Kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

20.4. Bosh direktor aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan yig'ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan 3 (uch) yil muddatga saylanadi (tayinlanadi) va uning vakolatlari muddatidan ilgari tugatiladi.

XX. EXECUTIVE BODY OF THE COMPANY

20.1. The day-to-day activities of the Company are managed by the Sole executive body – the General Director.

20.2. The General Director is selected based on a competitive process from among highly qualified specialists, including foreign experts, and may be appointed by a decision of the General Meeting of Shareholders in accordance with the procedure established by the legislation of the Republic of Uzbekistan.

20.3. The General Director reports to the General Meeting of Shareholders and the Supervisory Board.

20.4. The General director of the Company is elected (appointed) for a period of 3 (three) years by the majority vote of the shareholders present at the General Meeting of Shareholders and his powers may be terminated earlier.

20.5. Bosh direktorning huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida, mazkur Ustavda hamda u bilan tuzilgan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi.

20.6. Bosh direktor bilan tuziladigan shartnomani Jamiyat nomidan Kuzatuv kengashi raisi imzolaydi.

Bosh direktor bilan tuziladigan shartnomada uning Jamiyat faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha majburiyatlari nazarda tutilishi kerak.

Bosh direktor Jamiyatning ijro apparatini shakllantiradi va boshqaradi, Jamiyatning tarkibini Kuzatuv kengashi bilan kelishilgan holda belgilaydi, Jamiyatga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun mas'ul hisoblanadi.

20.7. Bosh direktor boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlarida faqatgina Kuzatuv kengashi roziligi bilan lavozimlarni egallab turishi mumkin, ushbu Nizomning 20.19-bandida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

20.8. Bosh direktor bilan tuzilgan shartnoma quyidagi asoslarga ko'ra Kuzatuv kengashi tomonidan muddatidan ilgari tugatilishi (bekor qilinishi) mumkin:

Bosh direktor tomonidan berilgan arizaga asosan;

Bosh direktor Jamiyat ustavini qo'pol tarzda buzgan taqdirda;

Bosh direktor harakatlari (harakatsizligi) tufayli Jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa;

Bosh direktor u bilan tuzilgan shartnoma shartlarini buzgan taqdirda.

20.9. Bosh direktorning vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, Kuzatuv kengashining qarori bilan belgilangan shaxs uning vazifalarini navbatdagi aksiyadorlar umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda vaqtincha bajarib turishiga yo'l qo'yiladi.

20.10. Bosh direktor o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z vazifalarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim.

20.11. Bosh direktorga to'lanadigan haq miqdori Jamiyat faoliyatining samaradorligiga

20.5. The rights and duties of the General Director are defined by the legislation of the Republic of Uzbekistan, this Charter, and the agreement made between him and the Company, and decisions are made annually regarding the extension or termination of the contract.

20.6. The contract with the General Director is signed on behalf of the Company by the Chairman of the Supervisory Board.

The contract with the General Director should include obligations related to improving the efficiency of the Company's activities.

The General Director of the Company forms and manages the executive apparatus of the Company, determines the structure of the Company in coordination with the Supervisory Board, and is responsible for fulfilling the tasks assigned to the Company.

20.7. The General Director may only hold positions in the governing bodies of other organizations with the approval of the Supervisory Board, except in the cases specified in clause 20.19 of this Regulation.

20.8. The contract with the General Director may be terminated (cancelled) prematurely by the decision of the Supervisory Board based on the following grounds:

based on the General Director's application;

if the General Director grossly violates the Company's Charter;

if the General Director's actions (or inactions) cause harm to the Company;

if the General Director violates the terms of the contract with the Company.

20.9. If the powers of the General Director are terminated prematurely, the person designated by the decision of the Supervisory Board will temporarily perform their duties until the next General Meeting of Shareholders.

20.10. The General Director must act in the best interests of the Company when exercising their rights and performing their duties.

20.11. The amount of remuneration paid to the General Director is directly related to the

to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi va u bilan tuziladigan shartnomada belgilanadi.

20.12. Bosh direktor O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi, ushbu Ustav va Jamiyatning "Ijroiya organi to'g'risida"gi Nizomi asosida ish olib boradi.

20.13. Bosh direktor Jamiyatning faoliyati bilan bog'liq barcha masalalarni mustaqil ravishda hal qiladi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

20.14. Bosh direktor quyidagi vakolatlarga ega:

20.14.1. O'zining vakolatlari doirasida Jamiyat faoliyatiga rahbarlik qilish;

20.14.2. Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalash;

20.14.3. Jamiyat nomidan aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi vakolati doirasidan tashqari bo'lgan bitimlarni tuzish;

20.14.4. Shtatlarni tasdiqlash, Jamiyat xodimlarini ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish, mehnat shartnomalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, mehnat shartnomalarini bekor qilish;

20.14.5. Jamiyat xodimlarining lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash;

20.14.6. Jamiyat xodimlarini rag'batlantirish, mehnat va ijro intizomini buzgan xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash;

20.14.7. Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;

20.14.8. O'z vakolatlari doirasida Jamiyatning ichki hujjatlarini tasdiqlash;

20.14.9. Vakolatli banklarda hisob-varaqlar ochish;

20.14.10. Jamiyat nomidan ishonchnomalar berish;

20.14.11. Jamiyat filiallari va sotuv markazlari hamda vakolatxonalarini rahbarlarini tayinlash va ularni lavozimidan ozod etish;

efficiency of the Company's activities and is determined in the contract concluded with his.

20.12 The General Director operates based on the legislation of the Republic of Uzbekistan, this Charter, and the Company's Regulation "On Executive body".

20.13. The General Director independently resolves all matters related to the activities of the Company, except for the issues that fall within the scope of the powers of the General Meeting of Shareholders and the Supervisory Board.

20.14. The General Director has the following powers:

20.14.1. Managing the Company's activities within the scope of his/her powers;

20.14.2. Conducting business on behalf of the Company without a power of attorney, including representing its interests;

20.14.3. Concluding contracts on behalf of the Company, except for those within the powers of the General Meeting of Shareholders and the Supervisory Board;

20.14.4. Approving staffing, hire employees, conclude employment contracts with them, make amendments and addenda to employment contracts, and terminate employment contracts;

20.14.5. Approving job descriptions for the Company's employees;

20.14.6. Rewarding employees and applying disciplinary actions against employees who violate labor and performance discipline;

20.14.7. Issuing orders and instructions to be followed by all employees of the Company;

20.14.8. Approving the Company's internal documents within the scope of his/her authority;

20.14.9. Opening accounts in authorized banks;

20.14.10. Issuing powers of attorney on behalf of the Company;

20.14.11. Appointing and dismissing the heads of the Company's branches, sales centers, and representative offices;

<p>20.14.12. Jamiyatning barcha xodimlariga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash;</p> <p>20.14.13. Jamiyat aksiyadorlar umumiy yig'ilishida qatnashish;</p> <p>20.14.14. Kuzatuv kengashining roziligiga ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etish;</p> <p>20.14.15. Kuzatuv kengashi majlislariga Jamiyatni rivojlantirish strategiyasini va uni amalga oshirish usullariga doir takliflarni kiritish.</p> <p>Bosh direktor O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi, ushbu Ustav va Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega.</p> <p>20.15. Bosh direktor quyidagi majburiyatlarga ega:</p> <p>20.15.1. O'z vakolatlari doirasida Jamiyatning kundalik ish faoliyati boshqaruvini amalga oshirish;</p> <p>20.15.2. O'z vakolatlari doirasida Jamiyatning samarali, daromadli va barqaror ishlashini ta'minlash;</p> <p>20.15.3. Jamiyatning asosiy faoliyatini takomillashtirish, boshqarishning eng yangi uslublarini joriy etishga yo'naltirilgan tadbirlarni ishlab chiqish va joriy etish;</p> <p>20.15.4. Jamiyatni rivojlantirish bo'yicha strategik choralarni, dasturlarni va Jamiyatning biznes rejalarini ishlab chiqish, ularning bajarilishini tashkil etish va nazorat qilish;</p> <p>20.15.5. Jamiyat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarga istiqbolda talabning oshishini ta'minlash, Jamiyat faoliyatining yangi yo'nalishlarini aniqlash;</p> <p>20.15.6. Jamiyat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar bo'yicha narx va tariflarni tasdiqlash;</p> <p>20.15.7. Sug'urta sirini va Jamiyat tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarning saqlanishini ta'minlash;</p> <p>20.15.8. Jamiyatning shartnomalar bo'yicha majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash;</p> <p>20.15.9. Jamiyatni malakali xodimlar bilan ta'minlash, ularni tayyorlash va o'qitish, xodimlarning malakasini oshirish ishlarini tashkil etish, xodimlarning bilimi, malakasi,</p>	<p>20.14.12. Determining the amounts of salary and compensation payable to all employees of the Company;</p> <p>20.14.13. Participating in the General Meeting of Shareholders of the Company;</p> <p>20.14.14. Participating in the Supervisory Board's meetings with an advisory vote, subject to the approval of the Supervisory Board;</p> <p>20.14.15. Submitting proposals regarding the Company's development strategy and its implementation methods at the Supervisory Board meetings.</p> <p>The General Director also has other powers in accordance with the laws of the Republic of Uzbekistan, this Charter, and the Company's internal documents.</p> <p>20.15. The obligations of the General Director are as follows:</p> <p>20.15.1. Managing the daily operations of the Company within the scope of his/her powers;</p> <p>20.15.2. Ensuring the effective, profitable, and stable operation of the Company within the scope of his/her powers;</p> <p>20.15.3. Developing and implementing measures aimed at improving the Company's core activities and introducing the latest management techniques;</p> <p>20.15.4. Developing strategic actions, programs, and business plans for the Company's development, organize and monitor their implementation;</p> <p>20.15.5. Ensuring future demand growth for the Company's services and identify new areas of activity for the Company;</p> <p>20.15.6. Approving the prices and tariffs for the services provided by the Company;</p> <p>20.15.7. Ensuring the confidentiality of insurance secrets and commercial secrets of the Company;</p> <p>20.15.8. Ensuring the fulfillment of the Company's contractual obligations;</p> <p>20.15.9. Providing the Company with qualified personnel, organizing their training and development, and ensuring the efficient use</p>
---	---

tajribasi va qobiliyatlaridan oqilona foydalanish choralarini ko'rish;

20.15.10. Xodimlar uchun ijtimoiy kafolatlar va mehnatni muhofaza qilishni ta'minlash;

20.15.11. Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

20.15.12. Jamiyat xodimlarining mehnat sharoitlarini muhofaza qilish va yaxshilash;

20.15.13. Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari o'rtasida samarali xamkorlikni ta'minlash;

20.15.14. Jamoa shartnomalari va bitimlarini imzolashda ish beruvchi sifatida ishtirok etish, jamoa shartnomalari bo'yicha majburiyatlarni bajarish;

20.15.15. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq, Jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotining tashkil etilishi, tegishli rasmiylashtirilganligi va ishonchliligini, yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etilishini, shuningdek aksiyadorlar, Kuzatuv kengashi a'zolari, kreditorlar va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash;

20.15.16. Tashqi auditorlik tashkilotlari, sug'urta sohasida vakolatli davlat organi va Jamiyatning Ichki audit xizmati tomonidan Jamiyatda o'tkazilayotgan tekshirishlar natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uning bajarilishi yuzasidan ishlarni tashkillashtirish;

20.15.17. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni Kuzatuv kengashiga, Jamiyatning Ichki audit xizmatiga va auditorlik tashkilotiga taqdim etish;

20.15.18. Soliq, statistika va moliyaviy hisobotlarning tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash;

20.15.19. Dividendlar hisoblanishi va to'lanishi bo'yicha aksiyadorlarning barcha huquqlariga rioya qilinishini ta'minlash;

20.15.20. O'z vakolatiga tegishli ishlarning holati to'g'risidagi axborotni aksiyadorlar

of employees' knowledge, skills, experience, and capabilities;

20.15.10. Ensuring compliance with social guarantees for employees and the protection of their labor;

20.15.11. Approving the regulations for the Company's structural divisions;

20.15.12. Ensuring the protection and improvement of labor conditions for the Company's employees;

20.15.13. Ensuring effective cooperation between the Company's structural divisions;

20.15.14. Participating as an employer in signing collective agreements and contracts, and to ensure the fulfillment of obligations under these agreements;

20.15.15. Ensuring the proper organization, reliability, and official documentation of the accounting and reporting in the Company, ensuring that annual and other financial reports are submitted on time to the relevant authorities, as well as providing information about the Company's activities to shareholders, the Supervisory Board members, creditors, and other stakeholders;

20.15.16. Developing an action plan to address deficiencies identified during inspections by external auditors, the competent state authority in the insurance field, and the Company's Internal Audit service, and to organize the execution of these measures;

20.15.17. Submitting documents related to the Company's financial and economic activities to the Supervisory Board, the Internal Audit service, and auditing organizations;

20.15.18. Ensuring the timely and complete submission of tax, statistical, and financial reports to the relevant authorities;

20.15.19. Ensuring the full protection of shareholders' rights regarding the calculation and payment of dividends;

20.15.20. Providing information on the status of activities within his/her authority to the

umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashiga belgilangan muddatlarda taqdim etish;

20.15.21. aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining majlislariga tayorgarlik ko'rishni va ularni o'tkazishni ta'minlash;

20.15.22. aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan masalalarni oldindan ko'rib chiqish hamda ular bo'yicha tegishli materiallar, hujjatlar va bayonnoma hamda qarorlar loyihalarini tayyorlash;

20.15.23. aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etish;

20.15.24. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi, ushbu Ustav va Jamiyatning ichki hujjatlariga rioya qilish.

Bosh direktor O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi, mazkur Ustav va Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega.

20.16. Bosh direktor Jamiyatga nisbatan xolislikni saqlab turishi lozim. Agar Bosh direktor bitimdan moliyaviy manfaatdorlikka ega bo'lsa, u ko'rsatilgan masala bo'yicha qaror qabul qilish boshlangunga qadar bu to'g'risida Kuzatuv kengashiga xabar berishga majbur. Bunday bitim Kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullanganidan so'ng tuzilishi mumkin.

20.17. Bosh direktor Jamiyatdagi o'z imkoniyatlaridan (mulkiy va nomulkiy huquqlaridan, xo'jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlardan, Jamiyat faoliyati va rejalari to'g'risidagi ma'lumotlardan) shaxsiy boylik orttirish yoxud o'zi mehnat munosabatida bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar foydasiga foydalanishi mumkin emas.

20.18. Bosh direktor Jamiyat mol-mulkini tasarruf etish orqali shaxsiy foyda ko'rish harakatlariga yo'l qo'ymasligi lozim.

20.19. Bosh direktor Jamiyatda faoliyat yuritayotgan davrda Jamiyat bilan raqobatlashadigan tashkilotlarni ta'sis qilish yoki ta'sis etishda qatnashish, shuningdek Jamiyat bilan raqobatlashadigan tashkilotlarda

General Meeting of Shareholders and the Supervisory Board within the prescribed timeframes;

20.15.21. Ensuring the preparation and holding of the General Meeting of Shareholders and the Supervisory Board's meetings;

20.15.22. To review issues that need to be addressed at the General Meeting of Shareholders or the Supervisory Board in advance, and prepare relevant materials, documents, minutes, and draft resolutions;

20.15.23. To organize the implementation of the decisions of the General Meeting of Shareholders and the Supervisory Board;

20.15.24. Complying with the legislation of the Republic of Uzbekistan, this Charter, and the Company's internal documents.

The General Director also has other obligations in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan, this Charter, and the Company's internal documents.

20.16. The General Director must maintain impartiality towards the Company. If the General Director has a financial interest in a transaction, they are obliged to notify the Supervisory Board about this before the decision is made. Such a transaction can only be concluded after being approved by the Supervisory Board.

20.17. The General Director is prohibited from using the Company's opportunities (property and non-property rights, opportunities in business activities, or information about the Company's activities and plans) for personal enrichment or for the benefit of individuals or legal entities with whom they have a labor relationship.

20.18. The General Director must not engage in actions aimed at personal gain through the disposal of Company property.

20.19. During their tenure at the Company, the General Director has no right to establish or participate in the establishment of organizations that compete with the Company, nor to work in organizations that compete with the Company.

<p>mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega emas.</p> <p>Bosh direktor Jamiyatda lavozimga tayinlangan vaqtdan boshlab bunday tashkilotlarda o'z ishtirokini to'xtatishga majbur va bu to'g'risida Kuzatuv kengashiga xabar berishi lozim.</p> <p>20.20. Bosh direktor Jamiyat oldida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va mazkur Ustavga, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorlariga va sudning qaroriga muvofiq o'z vazifasini bajarmasligi yoki belgilangan tartibda bajarmasligi natijasida Jamiyatga yetkazilgan zarar uchun javobgardir.</p> <p>20.21. Jamiyat yoki Kuzatuv kengashi Bosh direktor tomonidan Jamiyatga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilishga haqli.</p>	<p>Upon appointment, the General Director is required to cease any involvement with such organizations and notify the Supervisory Board.</p> <p>20.20. The General Director is liable for any damage caused to the Company as a result of failing to fulfill their duties in accordance with the laws of the Republic of Uzbekistan, this Charter, the resolutions of the General Meeting of Shareholders, or a court decision.</p> <p>20.21. The Company or the Supervisory Board has the right to file a lawsuit for the recovery of damages caused to the Company by the General Director.</p>
<p>XXI. JAMIYATNING FAOLIYATINI NAZORAT QILISH</p> <p>21.1. Jamiyatning faoliyati o'z vakolatlari doirasida quyidagilar tomonidan nazorat qilinadi:</p> <p>Jamiyatning Ichki audit xizmati; Auditorlik tashkiloti.</p>	<p>XXI. MONITORING OF THE COMPANY'S ACTIVITIES</p> <p>21.1. The activities of the Company are monitored by the following within the scope of their authority:</p> <p>The Company's Internal Audit Service; The Auditing Organization.</p>
<p>XXII. JAMIYATNING ICHKI AUDIT XIZMATI</p> <p>22.1. Jamiyatda Ichki audit xizmati tashkil etiladi.</p> <p>22.2. Jamiyat Ichki audit xizmati Kuzatuv kengashiga hisobdor bo'lib, uning xodimlari soni va shaxsiy tarkibi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan belgilangan tartibda tashkil etiladi.</p> <p>22.3. Jamiyatning Ichki audit xizmati Bosh direktor, Jamiyatning filiallari, sotuv markazlari va vakolatxonalari tomonidan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga, ushbu Ustavga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini,</p>	<p>XXII. INTERNAL AUDIT SERVICE OF THE COMPANY</p> <p>22.1. An Internal Audit Service is established within the Company.</p> <p>22.2. The Internal Audit Service of the Company is accountable to the Supervisory Board, and the number of its employees and their personnel composition shall be organized in accordance with the procedure established by the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p> <p>22.3. The Internal Audit Service of the Company monitors and evaluates the compliance of the General Director, the Company's branches, sales centers, and representative offices with the legislation of the Republic of Uzbekistan, this Charter, and other documents, ensures that information in accounting records and financial statements is complete and accurate, checks adherence to the established procedures and regulations for conducting business operations, ensures the</p>

<p>shuningdek Jamiyatni boshqarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali Bosh direktor, Jamiyatning filiallari, sotuv markazlari va vakolatxonalari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.</p> <p>22.4. Ichki audit xizmati faoliyati Jamiyatning "Ichki audit xizmati to'g'risida"gi Nizom bilan belgilanadi.</p>	<p>preservation of assets, and monitors compliance with the legal requirements regarding the management of the Company through inspections and ongoing monitoring of the activities of the General Director, branches, sales centers, and representative offices.</p> <p>22.4. The activities of the Internal Audit Service are regulated by the Company's Regulation "On the Internal Audit Service".</p>
<p>XXIII. AUDITORLIK TASHKILOTI</p> <p>23.1. Auditorlik tashkiloti Jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan belgilangan tartibda Jamiyat moliya-xo'jalik faoliyatining tekshirilishini amalga oshiradi va unga auditorlik xulosasini taqdim etadi.</p> <p>23.2. Auditorlik tashkiloti Jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborot haqidagi noto'g'ri xulosani o'z ichiga olgan auditorlik xulosasi tuzilganligi oqibatida yetkazilgan zarar uchun Jamiyat oldida javobgar bo'ladi.</p>	<p>XXIII. AUDIT ORGANIZATION</p> <p>23.1. The audit organization shall carry out the inspection of the Company's financial and economic activities in accordance with the contract concluded with the Company, following the procedure established by the legislation of the Republic of Uzbekistan, and provide an audit opinion.</p> <p>23.2. The audit organization shall be liable to the Company for damages caused by the issuance of an audit opinion containing incorrect conclusions regarding the Company's financial statements and other financial information.</p>
<p>XXIV. JAMIYAT TOMONIDAN YIRIK BITIMLAR TUZISH VA JAMIYATNING BITIM TUZISHDAN MANFAATDORLIGI</p> <p>24.1. Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik) yoki o'zaro bog'langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining 15 (o'n besh) foizidan ortig'ini tashkil etsa, yirik bitim deb hisoblanadi, kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar hamda aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar bundan mustasno.</p> <p>24.2. Jamiyatning yirik bitimi predmeti bo'lgan mol-mulkning bozor qiymati deganda</p>	<p>XXIV. CONCLUDING LARGE TRANSACTIONS AND THE COMPANY'S BENEFIT FROM TRANSACTIONS</p> <p>24.1. A transaction involving the acquisition or provision of property to another party, or a transaction related to the potential transfer of property to another party (including loans, credit, collateral, guarantees), or several interconnected transactions, shall be considered a large transaction if the balance value of the property being transferred or acquired exceeds 15 (fifteen) percent of the Company's net assets as of the date the decision to enter into the transaction is made. Transactions related to daily business operations, as well as those involving the placement of shares and other securities, are excluded from this definition.</p> <p>24.2. The market value of the property subject to the Company's large transaction</p>

mol-mulkning eng ehtimol tutilgan narxi tushunilib, ushbu qiymat bo'yicha mazkur mol-mulk ochiq bozorda bitimning taraflari barcha zarur axborotga ega bo'lgan holda o'z manfaatlarini yo'lida oqilona va ixtiyoriy ravishda harakat qiladigan raqobat sharoitida boshqa shaxsga berilishi mumkin, bitim narxining baland-pastligida esa biror-bir favqulodda holatlar, shu jumladan taraflardan birining ushbu bitimga qo'shilish majburiyati aks etmaydi.

24.3. Jamiyat mol-mulking bozor qiymatini aniqlash uchun bitimning taraflari tomonidan baholovchi tashkilot jalb etilishi mumkin.

24.4. Balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining 15 (o'n besh) foizidan 50 (ellik) foizigacha tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror Kuzatuv kengashining a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi, bunda Kuzatuv kengashidan chiqib ketgan a'zolarining ovozi inobatga olinmaydi.

24.5. Balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining 50 (ellik) foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

24.6. Qiymatidan qat'iy nazar Jamiyat tomonidan kredit olish haqidagi qaror Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

24.7. Jamiyat tomonidan yirik bitimlar tuzish va jamiyatning bitim tuzishdan manfaatdorligi bo'yicha mazkur Ustavda tartibga solinmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

refers to the most probable price of the property, meaning the price at which the property could be transferred in the open market under conditions where the parties to the transaction act rationally and voluntarily, having all the necessary information and in a competitive environment. The price of the transaction should not reflect any extraordinary conditions, including any obligations of one party to join the transaction.

24.3. To determine the market value of the Company's property, an appraisal organization may be involved by the parties to the transaction.

24.4. A decision to conclude a large transaction concerning property that constitutes between 15 (fifteen) percent and 50 (fifty) percent of the Company's net assets as of the date the decision to enter into the transaction is made shall be approved unanimously by the members of the Supervisory Board, with the votes of members who have left the Supervisory Board not being considered.

24.5. A decision to conclude a large transaction concerning property that constitutes more than 50 (fifty) percent of the Company's net assets as of the date the decision to enter into the transaction is made shall be approved by the general meeting of shareholders.

24.6. Regardless of the amount, a decision to take a loan by the Company shall be approved by the Supervisory Board.

24.7. Relations regarding the conclusion of large transactions and the Company's benefit from transactions, not regulated by this Charter, shall be governed by the legislation of the Republic of Uzbekistan.

XXV. JAMIYATNING AFFILLANGAN SHAXSLARI BILAN BITIMLAR TUZISH

25.1. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda o'zining affillangan shaxslari ro'yxatini yuritadi va oshkor etadi.

XXV. ENTERING INTO AGREEMENTS WITH AFFILIATED PERSONS

25.1. The Company shall maintain and disclose a list of its affiliated persons in accordance with the procedure established by the legislation of the Republic of Uzbekistan.

25.2. Affillangan shaxs Jamiyat bilan bitim tuzishda affillangan ekanligi to'g'risida tuzilishi kutilayotgan bitim haqidagi ma'lumotlarni, shu jumladan bitimda ishtirok etayotgan shaxslar, bitim predmeti to'g'risidagi ma'lumotlarni, tegishli shartnomaning muhim shartlarini batafsil ko'rsatgan holda yozma bildirish yuborish orqali jamiyatni xabardor etishi shart.

25.3. Affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar to'g'risidagi axborot, shu jumladan affillangan shaxslarning yozma bildirishlari va bitimlar bo'yicha qabul qilingan qarorlarning to'liq ta'riflari, qaror qabul qilgan shaxslar haqidagi ma'lumotlar hamda affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish chog'idagi manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlar Jamiyat yillik hisobotining bir qismidir.

25.4. Jamiyatning affillangan shaxsi bilan tuziladigan bitim to'g'risidagi, tuzilishi kutilayotgan bitim tarafining yozma bildirishida ko'rsatiladigan axborot Bosh direktor va Ichki audit xizmati tomonidan o'rganiladi. Bosh direktor tomonidan o'rganish yozma bildirish olinganidan keyin 3 (uch) ish kuni ichida amalga oshiriladi. Bosh direktorning qaroriga ko'ra mazkur bitimni o'rganishga qo'shimcha ravishda Jamiyatning boshqa xodimlari jalb qilinishi mumkin.

25.5. Bosh direktor Kuzatuv kengashini affillangan shaxs bilan tuzilishi kutilayotgan bitimni o'rganish natijalari bayonnomasini ilova qilgan holda yozma shaklda xabardor qiladi.

25.6. Kuzatuv kengashi affillangan shaxs bilan tuziladigan bitim to'g'risidagi axborotni o'rganadi va affillangan shaxsning yozma bildirishi Jamiyatga kelib tushgan sanadan e'tiboran 15 (o'n besh) kundan kechiktirmay bitim bo'yicha qaror qabul qiladi.

25.7. Agar Kuzatuv kengashining 2 (ikki) va undan ortiq a'zosi affillangan shaxs bo'lsa, bitim bo'yicha qaror O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda va muddatlarda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

25.2. An affiliated person, when entering into an agreement with the Company, must notify the Company in writing about the expected agreement, including information about the parties to the agreement, the subject of the agreement, and the key terms of the agreement, clearly indicating that they are affiliated with the Company.

25.3. Information regarding agreements made with affiliated persons, including written notifications from affiliated persons and detailed descriptions of decisions made regarding the agreements, information about the persons making the decisions, and any conflicts of interest when entering into agreements with affiliated persons, shall be part of the Company's annual report.

25.4. Information regarding agreements with an affiliated person, as indicated in the written notification about the expected agreement, shall be reviewed by the General Director and the Internal Audit Service. The review by the General Director shall be conducted within 3 (three) business days after receiving the written notification. The decision to involve other employees of the Company in reviewing the agreement may be made by the General Director.

25.5. The General Director shall inform the Supervisory Board in writing, attaching the report on the results of the review of the expected agreement with the affiliated person.

25.6. The Supervisory Board shall review the information regarding the agreement with the affiliated person and, within 15 (fifteen) days from the date the written notification from the affiliated person is received, make a decision regarding the agreement.

25.7. If 2 (two) or more members of the Supervisory Board are affiliated persons, the decision regarding the agreement shall be made by the General Meeting of Shareholders in accordance with the procedure and within the timeframe established by the legislation of the Republic of Uzbekistan.

<p>25.8. Jamiyatning affillangan shaxsi Kuzatuv kengashi yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi mazkur bitim yuzasidan qaror qabul qilayotganda muhokamada ishtirok etishga haqli emas va ovoz berish huquqiga ega emas.</p> <p>25.9. Affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitimni ma'qullash haqidagi qaror majlisda ishtirok etayotgan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan bir ovozdan yoxud aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan aksiyadorlarning malakali ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.</p> <p>25.10. Jamiyatning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish bo'yicha mazkur Ustavda tartibga solinmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan tartibga solinadi.</p>	<p>25.8. The affiliated person shall not participate in the discussions or vote when the Supervisory Board or the General Meeting of Shareholders of the Company is making a decision on the agreement.</p> <p>25.9. The decision to approve an agreement with an affiliated person shall be made by the members of the Supervisory Board present at the meeting by a unanimous vote or by a qualified majority vote of the shareholders present at the general meeting.</p> <p>25.10. Relations not regulated by this Charter regarding entering into agreements with affiliated persons shall be governed by the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p>
<p style="text-align: center;">XXVI. HISOB VA HISOBOT HAMDA HUJJATLARNI SAQLASH</p> <p>26.1. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi va moliyaviy hisobot taqdim etishi shart.</p> <p>26.2. Jamiyatda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, holati va ishonchliligi, tegishli tashkilotlarga har yilgi hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar, shuningdek Jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida aksiyadorlarga, kreditorlarga taqdim etiladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik Bosh direktorning zimmasida bo'ladi.</p> <p>26.3. Jamiyatning yillik hisoboti aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan 10 (o'n) kundan kechiktirmay Kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda tasdiqlanishi lozim.</p> <p>26.4. Jamiyat xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan yillik moliyaviy hisobotni u xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o'tkazilganidan keyin, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida 2 (ikki) hafta oldin e'lon qilishi shart.</p>	<p style="text-align: center;">XXVI. ACCOUNTING AND REPORTING, AS WELL AS DOCUMENT STORAGE</p> <p>26.1. The Company shall maintain accounting records and submit financial reports in accordance with the procedures established by the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p> <p>26.2. The responsibility for the organization, condition, and reliability of the accounting records, as well as the timely submission of annual reports and other financial reports to the relevant organizations, and the provision of information about the Company's activities to shareholders and creditors through the Company's official website and mass media, rests with the General Director.</p> <p>26.3. The Company's annual report must be preliminarily approved by the Supervisory Board no later than 10 (ten) days before the date of the annual general meeting of shareholders.</p> <p>26.4. The Company must announce its annual financial report, prepared in accordance with International Financial Reporting Standards, at least 2 (two) weeks before the date of the annual general meeting of shareholders, after it has undergone external auditing in accordance with International Auditing Standards.</p>

<p>26.5. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq hujjatlarni saqlaydi.</p>	<p>26.5. The Company shall store documents in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p>
<p>XXVII. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH</p> <p>27.1. Jamiyatni qayta tashkil etish qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shaklida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.</p> <p>27.2. Jamiyatni tugatish aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.</p> <p>Jamiyatning tugatilishi huquq va majburiyatlarni huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o'tkazmagan holda Jamiyat faoliyatini tugatishga olib keladi.</p>	<p>XXVII. REORGANIZATION AND LIQUIDATION OF THE COMPANY</p> <p>27.1. The reorganization of the Company, including merger, consolidation, division, separation, and transformation, shall be carried out based on the decision of the general meeting of shareholders, in accordance with the procedures and conditions established by the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p> <p>27.2. The liquidation of the Company shall be carried out based on the decision of the general meeting of shareholders, in accordance with the procedures and conditions established by the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p> <p>The liquidation of the Company leads to the termination of its activities without transferring rights and obligations to other persons under legal succession.</p>
<p>XXVIII. YAKUNIY QOIDALAR</p> <p>28.1. Mazkur Ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va mazkur Ustavga asosan hal qilinadi.</p> <p>28.2. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq ular tegishli sud orqali hal qilinadi.</p> <p>28.3. Mazkur Ustavda tartibga solinmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan tartibga solinadi.</p> <p>28.4. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida mazkur Ustavda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi qoidalari qo'llaniladi.</p> <p>28.5. Agar mazkur Ustavni biron bir qoidasi o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa, bu qoida boshqa qoidalarni to'xtatish uchun sabab bo'lmaydi.</p> <p>28.6. Mazkur Ustav va unga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavi uchinchi shaxslar uchun ular O'zbekiston Respublikasining</p>	<p>XXVIII. FINAL PROVISIONS</p> <p>28.1. Any disputes and disagreements arising from this Charter shall be resolved in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan and this Charter.</p> <p>28.2. In the event that it is not possible to resolve disputes and disagreements through negotiations, they shall be settled by the relevant court in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p> <p>28.3. Matters not regulated by this Charter shall be governed by the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p> <p>28.4. If the legislation of the Republic of Uzbekistan sets forth rules that differ from those provided in this Charter, the rules of the legislation of the Republic of Uzbekistan shall apply.</p> <p>28.5. If any provision of this Charter becomes invalid, this shall not serve as a reason to suspend the validity of other provisions.</p> <p>28.6. This Charter, along with any amendments and additions, or the new version of the Company's Charter, shall enter into force for third parties from the moment it is registered</p>

qonunchiligida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan hollarda esa davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ xabardor etilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

with the relevant state authority in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan, and in cases specified by the legislation of the Republic of Uzbekistan, it will enter into force from the moment the registering body is notified.

**Bosh director /
General Director**



Janis Lasis